

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

Jo'raev A.S., Kuzieva N.R.

**MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI
SOLIQ TIZIMI**

O'QUV QO'LLANMA

Toshkent-2005

Markaziy Osiyo davlatlari soliq tizimi. O'quv qo'llanma. / Jo'raev A.S., Kuzieva N.R., T., Toshkent Moliya Instituti. 2004 y., 119-b.

Mazkur o'quv qo'llanmada Markaziy Osiyo davlatlari soliq tizimining o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Bunda, Markaziy Osiyo davlatlari tarkibiga kiruvchi Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekiston mamlakatlarining soliq tizimini tuzilish asoslari, soliq tizimini tashkil etuvchi asosiy soliq guruhlari, umumdavlat va mahalliy soliqlarning byudjet daromadlarini shakllantirishda tutgan o'rni, egri va to'g'ri soliqlarni byudjetga undirish mexanizmi, soliqlar yuzasidan beriladigan imtiyoz turlari, hozirgi kunda amaldagi soliq stavkalari va soliqlarni to'lash muddatlari tahlil qilingan va ushbu masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar keltirilgan.

O'quv qo'llanma barcha moliya-iqtisod ixtisosligi talabalari, o'quvchilari, aspirantlari, ilmiy izlanuvchilari va moliya-soliq sohasi xodimlariga mo'ljallangan.

O'quv qullanma Toshkent Moliya instituti qoshidagi Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy Kengash majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar: i.f.n., dots. P.Sh.Saidxo'jaev
i.f.n., dots. H.Jamolov

I-BOB. Qirg'iziston mamlakati soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari

1.1. Qirg'iziston mamlakati soliq tizimiga umumiy tavsif

Qirg'iziston Respublikasi Soliq Kodeksi 1996 yil 1 iyuldan amalga kiritilgan. Unda soliq organlarining asosiy vazifalari va vakolatlari, soliqlarni hisoblash va undirish mexanizmi, moliyaviy va jarima sanksiyalarini undirish, shuningdek, soliq to'lovchilarining huquq va majburiyatlari belgilangan.

Soliq Kodeksiga amal qilish davri mobaynida, yani 1996 yildan boshlab quyidagi o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritildi. Jumladan:

- qo'llanadigan jarima sanksiyalari kamaytirildi;
- daromad solig'ining maksimal stavkasi 40% dan 33% gacha, stavkalar miqdori esa 6 dan 4 gacha tushirildi;
- xalqaro tashish bilan bog'liq ish va xizmatlar ko'rsatishga qo'shilgan qiymat solig'ining nolli stavkasi o'rnatildi;
- to'lanmagan soliqlarni uchinchi shaxs majburiyatiga o'tkazish tartibi bekor qilindi.

Amalga oshirilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalarning umumiy soni 500dan ortiqligi salbiy omil hisoblanib, bu hujjatni qabul qilish jarayonlarida mukammal ishlab chiqarilmaganini ko'rsatib berdi.

Qirg'iziston Respublikasi Soliq Kodeksning xususiyatlari

Qirg'iziston Respublikasi hududida soliqlarni joriy qilish va bekor qilish huquqi Qirg'iziston Respublikasi Juqori Kengesi tomonidan amalga oshiriladi.

Soliqlar, yig'imlar, hisoblangan foizlar va jarima sanksiyalari bo'yicha qarzdorlik ro'yxatga olinmaydi. Soliq inspeksiyasi tomonidan tekshirish muddati 30 kundan oshmasligi kerak, boshqa hollarda esa Davlat Soliq inspeksiyasidan yozma ruxsatnomasi bilan bu muddat yana 10 kunga uzaytirilishi mumkin.

Soliq inspeksiyasi aniq shartlar asosida avval tekshirgan soliq to'lovchini qaytadan tekshirish huquqiga ega.

Banklar va kredit muassasalari:

- a) birinchi navbatda soliq to'lovi bo'yicha topshiriqni bajarishga;
- b) soliq xizmatiga tijorat hisob-raqamlari bilan operatsiyalar, soliq to'lovchilarining hisob-raqamlarda mablag'lar mavjudligi, to'langan foizlar haqida ma'lumot taqdim etishga majburlar.

Shuningdek, tovar va fond birjalari ham soliq inspeksiyasiga ma'lumotlar taqdim etishlari shart. Soliqli to'lash maqsadida tushum quyidagi usullar orqali aniqlanadi:

- a) schyot-fakturalari asosida;
- b) to'lov asosida;
- v) aralash usulda.

Soliq to'lovchi inflyatsiyani hisobga olgan holda, tovar moddiy qiymatlarni qoldig'ini qayta baholash huquqiga ega va qayta baholash summasi soliqqa tortilmaydi.

Amortizatsiya normasi 5 ta guruh bo'yicha aniqlanadi, foiz stavkasi 10% va 30% orasida tabaqalashgan.

Jarima miqdori:

- a) o'z vaqtida taqdim etilmagan deklaratsiyalar va kechiktirilgan to'lovlar uchun yuridik shaxslardan to'lanmagan summaning 25% dan oshmagan holda;
- b) jismoniy shaxslardan 10%dan oshmagan holda amalga oshiradilar.

Soliq summasini kamaytirgani uchun – boqimanda summasining 50%-100%gacha, bu boqimandaning o'zi va penya to'lovi, shuningdek, qarzdor shaxslarni ma'muriy javobgarlikdan ozod qilmaydi.

1.2. Umumdavlat soliqlarining byudjet daromadlarini shakllantirishda tutgan o'rni

Qirg'iziston Respublikasi soliq tizimi 2 pog'onali bo'lib, u umumdavlat va mahalliy soliq'larga bo'linadi.

Umumdavlat soliqlari quyidagilardan iborat:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aktsiz solig'i;
- er solig'i.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining stavkalari tabaqalashtirilgan bo'lib, 5%-33%ni tashkil etadi. Yalpi daromad solig'ining to'lov muddati, ya'ni deklaratsiya taqdim etilishi lozim bo'lgan muddat joriy yildan keyingi yilning 15 martigacha belgilangan.

Rezidentlarning tashqi va ichki manba daromadlari soliqqa tortiladi. Soliqqa ish haqi, erkin tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar, foizlar va dividendlar tortiladi. Hayot va sog'liq sug'urtasidan daromadlar ham soliqqa tortiladi. Belgilangan stavkalar quyidagicha tabaqalashtirilgan:

- Yillik ish haqining 5 barobarigacha-5%;
- Yillik ish haqining 10 barobaridan ortiq bo'lsa-33%.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha quyidagi imtiyozlar amal qiladi: meros va sovg'alar, hayot sug'urtasi ajratmalari, davlatni qimmatbaho qog'ozlarini sotib olishdan olingan daromadlar, bank depozitlaridan foizlar daromad solig'idan ozod etilgan.

Daromad olish bilan bog'liq ba'zi xarajatlar ham soliq bazasidan chegirilishi mumkin.

Bugungi kunda Qirg'iziston kichik tadbirkorlari uchun soliqqa tortishning patent tizimi amal qiladi. Patent summasi jismoniy shaxsning faoliyat ko'rsatayotgan joyiga qarab belgilanadi. O'rtacha bir oylik patent summasi 250 somni tashkil qiladi. Bishkekda esa bu miqdor 500-600 som qilib belgilangan.

Yuridik shaxslarning foyda solig'i.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi eng yuqorisi 30% qilib belgilangan bo'lib, sanoatning turli sohalariga qarab stavkalar tabaqalashtirilgan:

- elektr-energiya sohasida - 17%
- aloqa va telekommunikatsiya sohasida - 11%
- oziq-ovqat sanoatida – 9%

Banklar daromadiga soliqning stavkasi 1997 yilda 50% qilib belgilangan bo'lsa, bugungi kunda 30% gacha qisqartirildi.

Qirg'izistonda yuridik shaxslarning foyda solig'i yuzasidan qator imtiyozlar berilgan. Shuningdek, quyidagi chegirmalar ham amal qiladi:

- ishchilarga bo'lgan xarajatlar;
- daromadni olish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarishning barcha xarajatlari;
- Qirg'iziston hukumati chet el investorlarini jalb etish maqsadida soliq ta'tilini ham joriy etgan.

- Qirg'iziston Respublikasida norezident shaxslar uchun quyidagi stavkalar belgilangan:
- dividendlar va foizlarga – 10%
- sug'urta risklari va qayta sug'urtalash bo'yicha bitim yuzasidan olingan sug'urta to'lovlariga - 5%
- qolgan daromadlar asosiy stavka asosida soliqqa tortiladi - 30%

Qirg'izistonda faoliyat ko'rsatib, daromad oluvchi chet el investorlarining soliq munosabatlari Qirg'iziston soliq Kodeksi va "Qirg'iziston Respublikasida chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi.

Yuridik shaxslar foyda solig'ini joriy oyning keyingi oyida 20- sanasidan kechiktirmay, har oyda byudjetga o'tkazadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i(QQS).

QQS (import tovarlari bilan bog'liq tashish, ish va xizmatlar ko'rsatish) xo'jalik faoliyati bilan bog'liq maqsadlarda, importdan maqsadli foydalangan taqdirda boshqa MDH davlatlariga tovar import tashish, ish va xizmatga nisbatan to'langan soliq summasiga qisqartiriladi.

Bunda er, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va binolardan olingan moddiy resurslar qiymatining 10%i miqdorida chegiriladi. Paxta xom ashyosi qiymatidan 12% miqdorida chegiriladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish bilan bog'liq tovar, ish va xizmatlarni tashishda QQS tashish dalolatnomasi asosida tashilgan kundan boshlab 100 kundan kechikmagan holda to'lanadi.

QQS dan quyidagilar ozod etilgan:

- yo'lovchilarni tashish bo'yicha transport xizmatlari (taksidan tashqari);
- pochta va telekommunikatsiya xizmatlari;
- aholiga kommunal xizmatlar;
- sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va sport muassasalari xizmatlari;
- o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun asosiy vositalar importi;
- alohida belgilangan erlar;
- qishloq xo'jalik erlari;
- moliya xizmatlari;
- hayot sug'urtasi;
- notijorat tashkilotlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar;
- birja operatsiyalari va boshqalar.

Tovarlar sotib olingan narxdan past narxda sotilganda QQS bozor narxida undiriladi.

Bugungi kunda QQSning asosiy stavkasi 20% qilib belgilangan. Bu soliq bo'yicha soliqning to'lash muddati har oyning 1-sanasi hisoblanadi. QQS bo'yicha hisobot davri tugaganidan so'ng 2 oydan kechikmagan holda to'lanishi kerak. Demak, soliq to'lanmasdan hisobot qabul qilinmaydi. Agar hisobot o'z vaqtida taqdim etilmasa, jarima to'lanadi. QQS o'sib boruvchi yakun asosida to'lanadi. QQS to'lovchi korxonaga bo'lishi uchun minimal yillik oborot hajmi belgilangan. Bu summa dastlab 30 ming somni, 2000 yili 100 ming somni, 2002 yil yanvaridan 300 ming somni tashkil etishi belgilangan.

QQS davlat soliq xizmati va bojxona xizmati organlari tomonidan undiriladi.

Aktsiz solig'i.

Qirg'izistonda aktsiz solig'i egri soliqlar ichida asosiy o'rinni egallab, 1997 yilda YaIMning 12%ini tashkil etgan. MDHga aktsizosti tovarlarini eksport qiluvchilar Qirg'izistonda aktsiz solig'idan ozod etiladi.

Aktsizosti mahsulotlari quyidagilardan iborat:

- spirtli ichimliklar;
- tamaki mahsulotlari;
- oltin, platina, kumushdan yasalgan zargarlik buyumlari, qimmatbaho taqinchoqlar;
- teri, mo'yna va ulardan tikilgan mahsulotlar;
- billur mahsulotlari, shuningdek, billur yoritkich asboblari;
- o'q otuvchi va gaz qurollari;
- neft mahsulotlari;
- kofe va kakao mahsulotlari;
- gilam va gilam mahsulotlari.

Aktsiz solig'i tushumlarining 60%i mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlardan, 40%i import mahsulotlaridan keladi. Import mahsulotlariga ko'proq neft mahsulotlari kiradi. Qimmatbaho toshlar, mo'yna va paltolar, o'qotar qurollar uchun stavka tovarning ulgurji bahosiga nisbatan foizlarda belgilangan. Neft mahsulotlari, tamaki mahsulotlari, spirtli ichimliklar uchun qat'iy stavka belgilangan. Soliq stavkalari import mahsulotlari uchun mahalliy mahsulotlarga nisbatan balandroq belgilangan. Lekin 1999 yilda pivo-spirtli mahsulotlar uchun soliq stavkasi ko'tarilib, import mahsulotlari bilan milliy mahsulotlar uchun soliq stavkasi o'rtasida farq kamaydi.

Aktsiz solig'i stavkalari har yili Qirg'iziston Respublikasi hukumatining Qirg'iziston Respublikasi Juqori Kengesi qonun chiqaruvchi yig'ilishidagi Qonuni asosida qabul qilinadi va Qirg'iziston Respublikasi Juqori Kengesi Xalq Vakillik yig'ilishida tasdiqlanadi.

Aktsiz to'lovi shakli, to'lov usuli va muddati Qirg'iziston Respublikasi hukumati tomonidan belgilanadi.

Soliq to'lovchi soliq xizmati organlariga oylik deklaratsiyani hisobot oyidan keyingi oying 15 sanasidan kechikmagan holda taqdim etishlari shart.

1.3. Mahalliy soliqlar va yig'implarning tarkibi va ahamiyati

Qirg'izistonda mahalliy soliqlar ichida asosiy o'rinni, er solig'i egallaydi va u o'z navbatida mahalliy byudjetga yo'naltiriladi.

Qishloq xo'jaligi erlari uchun er solig'i tuproqning sifati, joylashishi va er uchastkasining maydoniga qarab belgilanadi, noqishloq xo'jalik erlari uchun qo'shimcha infratuzilma va shahar qurilish qiymati ham hisobga olinadi.

Soliqning bazaviy stavkalari va to'lash tartibi Qirg'iziston Respublikasi hukumati tomonidan qabul qilinadi. Baland tog'li va uzoqda joylashgan hududlar uchun bazaviy stavkaning 50%i amal qiladi.

Er solig'ini to'lash muddatlari:

a) qishloq xo'jaligi erlari uchun:

10%i – 25 iyungacha,

35%i – 25 sentyabrgacha,

55%i – 25 dekabrgacha.

b) aholi punktlaridan uzoqlashgan va qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan erlar uchun soliq teng ulushlarda har oyning 20- sanasidan kechiktirmay to'lanadi;

s) dam olish uchastkalari va qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan erlar uchun soliq 1-sentyabrgacha to'lanish kerak. Dam olish uchastkalari uchun to'lanadigan er solig'idan aholini imtiyozli qismi, shu jumladan, nafaqaxo'rlar ham ozod etiladi.

Quyida biz Qirg'izistonda undiriladigan boshqa mahalliy soliqlar va yig'implar tarkibi va ahamiyatini ko'rib chiqamiz.

Kurort solig'i

Kurortlar va dam olish maskanlari joylashgan tuman kengashi, kurortda yashagan har bir kun uchun minimal oylik ish haqining 5%idan oshmagan holda soliq stavkasini belgilaydi.

Reklama solig'i

Ushbu soliqning soliqqa tortish ob'ekti bo'lib, ish va xizmatlarning qiymati hisoblanadi, reklamani tayyorlash va tarqatish uchun QQSdan tashqari.

Soliq stavkasi reklama xizmati qiymatining 3%idan oshmaydigan miqdorda belgilangan. Soliq summasi mahalliy byudjet organlariga to'langan joyda o'tkaziladi. Reklama solig'ini undirish va byudjetga o'tkazish reklama xizmati ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan har oyi hisobot oyidan keyingi oyning 20-sanasigacha amalga oshiriladi.

It egalaridan olinadigan yig'im

Umumiy foydalanishdagi uylarda it boquvchi fuqarolari bu soliqning to'lovchilari hisoblanadi. Soliq stavkasi yilda bitta it uchun 2 minimal ish haqidan oshmaydigan miqdorda o'rnatilgan va joriy yilning 1-apreligacha to'lanadi.

Tijorat maqsadlaridagi mahalliy auksionlar, lotoreyalar, tadbirlar, musobaqalar va ko'rgazmalar o'tkazish huquqi uchun yig'im

Yig'im savdo fondini 10%i, lotoreya chiptalari uchun esa lotoreya chiptalari realizatsiyasidan 10%i miqdorida tashkilotchilar tomonidan to'lanadi. Yig'implarni byudjetga to'lash muddati tadbir o'tkazilgandan so'ng, hisobot oyidan keyingi oyning 20-sanasigacha amalga oshiriladi.

Avtotransport vositalarini to'xtash joyidan foydalanilganlik uchun yig'im

Bu yig'im mahalliy kengash tomonidan minimal ish haqining 3%idan oshmaydigan miqdorda belgilanadi.

Mahalliy ramzlardan foydalanish huquqi uchun soliq

Bu soliqning stavkasi mahalliy kengashlar tomonidan sotilgan mahsulotning qiymatiga nisbatan 0,1%idan oshmagan miqdorida belgilanadi. Yig'im to'lovi har oy hisobot oyidan keyingi oyning 20- sanasigacha amalga oshiriladi.

Xom ashyo birjalarida o'tkaziladigan bitimlar uchun yig'im

Yig'imning stavkasi mahalliy kengashlar tomonidan bitim summasining 0,1%idan oshmagan miqdorda o'rnatiladi. Yig'im to'lovchi har oyi hisobot oyidan keyingi oyining 20-sanasigacha amalga oshiradi. Yig'imning to'lovchilari bo'lib, birjaning joylashgan joyidan qat'iy nazar birja orqali mahsulotlarni realizatsiya qilish bitimlarida ishtirok etuvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Aholi yashash punktlaridan chiqindilarni olib chiqish uchun yig'im

Yig'im to'lovchilari bo'lib, yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Yig'im miqdori shahar va tumanlarda mahalliy kengashlar tomonidan, qo'rg'on, qishloq va ovullarda fuqoralar majlislarida o'rnatiladi. Yig'im stavkasi minimal oylik ish haqining 25%idan oshmasligi lozim va yilda bir marta joriy yilning 1 apreliyigacha to'lanadi.

Issiqxonalarda gul etishtiruvchi va ularni aholiga realizatsiya qiluvchi fuqoralardan soliq

Bu soliqning to'lovchilari bo'lib, issiqxonalarda gul etishtiruvchi va ularni aholiga realizatsiya qiluvchi jismoniy shaxslar hisoblanadi. Soliqqa tortish ob'ekti bo'lib, sotishdan tushgan daromad hisoblanadi.

Soliq miqdori mahalliy kengash tomonidan, to'lash muddati va tartibi mahalliy davlat ma'muriyati tomonidan belgilanadi.

Mehmonxona solig'i

Mazkur soliq bir martalik xarakteriga ega va kurort solig'i o'rnatilmagan joylarda belgilanadi. Soliq miqdori xizmat ko'rsatilgan har 1 kun uchun minimal oylik ish haqining 30% idan oshmasligi lozim.

Ov va baliqchilik huquqi uchun soliq

Soliq miqdori minimal ish haqining 3% idan oshmasligi lozim. To'lov baliqchilar va ovchilar jamiyatida ruhsatnoma olish vaqtida amalga oshiriladi.

Xorijga chiqib ketayotgan turistlarga soliq

Soliq minimal ish haqining 20% idan oshmasligi kerak. Belgilangan to'lov chiqish hujjatlari rasmiylashtirilayotganda hisob-kitob qilinadi.

Videosalonlar va kontsert-tomosha tadbirlariga soliq

Bu soliqning chegaraviy stavkalari o'rnatilmagan. Soliq miqdorini mahalliy kengash belgilaydi. Videosalon va madaniy tadbir tashkilotchilari ushbu soliqni hisobot oyidan keyingi oyining 20-sanasigacha to'laydilar.

Aholiga xizmat ko'rsatish va chakana savdoga soliq.

Soliq stavkasi mahalliy kengash tomonidan chakana savdoning tovar oboroti va aholiga xizmat ko'rsatish summasining 2%idan oshmagan miqdorda o'rnatiladi. To'lov hisobot oyidan keyingi oyning 20-sanasigacha amalga oshiriladi.

Foydalanilmaydigan ishlab chiqarish va savdo maishiy maydonlar (yoki ularning bo'limlari) uchun soliq

Soliqning to'lovchilari bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadi. Soliq stavkalari mahalliy kengash tomonidan o'rnatiladi va ko'chmas mulkning joylashgan joyiga qarab tabaqalanishi mumkin. Foydalanilmagan ishlab chiqarish va savdo maishiy maydonlari (hamda ularning bo'limlari) uchun soliq stavkasi balans qiymatining 0,4% idan oshmasligi kerak. Chegirmalarni qo'llash tartibi Qirg'iziston Respublikasi hukumati tomonidan aniqlanadi. Soliq summasi har oyi hisobot oyidan keyingi oyning 20-sanasigacha byudjetga o'tkaziladi.

Transport vositalari egalaridan olinadigan soliq

Soliq miqdori transport turiga qarab, dvigatel ish hajmiga qarab belgilangan. Soliqni to'lov muddati mahalliy kengashlar tomonidan o'rnatiladi, lekin joriy yilning 1 avgustidan kech qolmaydigan holda amalga oshiriladi.

Avtomobil yo'llaridan foydalanganlik uchun soliq

Soliq miqdori tovar mahsuloti hajmining 0,8% (sanoat mahsulotlari uchun) yoki tovaroborotning 0,08% (savdo korxonolari uchun) miqdorida hisobot oyidan keyingi oyning 20-sanasigacha to'lanadi.

Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ogohlantirish vositalari uchun ajratma

Ajratma miqdori sotilgan mahsulotning 1,5%i miqdorida belgilangan. To'lov muddati har oyning 20-sanasigacha hisob-kitob qilinishi lozim.

O'z-o'zini tekshirish va takrorlash uchun savollar:

1. Qirg'iziston Respublikasi Soliq Kodeksi qachon qabul qilingan va uning ahamiyatini aytib bering.
2. Qirg'iziston Respublikasi soliq tizimi necha pog'onali?
3. Umumdavlat soliqlarining byudjet daromadlari shakllantirishdagi o'rnini tahlil qiling.
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari qaysi tartib asosida undiriladi?
5. Yuridik shaxslarning foyda solig'ini to'lash tartibini ayting.
6. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha qanday imtiyozlar belgilangan?
7. Qirg'iziston Respublikasida aktsizosti mahsulotlari tarkibiga qaysi mahsulotlar kiritilgan?
8. Qirg'izistonda mahalliy soliqlar ichida asosiy o'rinni qaysi soliq turlari egallaydi?
9. Mahalliy yig'imlarga qaysi yig'im turlari kiritilgan va ularning to'lovchilari kimlar?
10. Er solig'ini to'lash muddatlari qaysi tartibda belgilangan?

II-BOB. Qozog'iston mamlakati soliq tizimining tuzilish asoslari

2.1. Qozog'iston mamlakati soliq tizimining tasniflanishi

Qozog'iston Respublikasi Soliq Kodeksi 1995 yil aprelda ishlab chiqilgan bo'lib, o'sha yilning 1 iyulidan amalga kiritilgan. Hukumat yangi soliq Kodeksini qabul qilar ekan, o'z oldiga quyidagi maqsadlarni belgiladi:

1. Soliq tizimini soddalashtirish va qarama-qarshiliklarni cheklash.
2. Soliq Kodeksini Qozog'iston mamlakatining barcha hududlarida yagona qonunga aylantirish.

Soliq Kodeksiga 1999 yil 16 iyulda qo'shimchalar kiritildi va bu qonun 1999 yil 3 avgustda kuchga kirgan.

Hozirgi kunda Qozog'iston Respublikasi soliq tizimi 2 pog'onali bo'lib, umumdavlat va mahalliy soliqlardan iborat.

Qozog'iston Respublikasida quyidagi soliqlar, yig'imlar va majburiy to'lovlar mavjud:

- jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aktsiz solig'i;
- qimmatbaho qog'ozlar emissiyasi uchun yig'im;
- tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliq;
- ijtimoiy soliq;
- er solig'i;
- jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq;
- transport vositalariga soliq;
- yagona er solig'i;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar ro'yxatdan o'tganlik uchun yig'im;
- alohida faoliyat turi bilan shug'ullanish huquqini olganlik uchun litsenziya yig'imi;
- auktsionda qatnashganlik uchun yig'im;
- bozorda tovarlarni sotish huquqi uchun yig'im;
- jismoniy va yuridik shaxslar o'zining firma nomida, xizmat belgisida, tovar belgisida Almata shahar timsollarini ishlatganlik uchun yig'im;
- jismoniy shaxslar tomonidan chet el vositasini sotib olganlik uchun yig'im, faqat bazaning 1%idan oshmasligi lozim.

Qozog'istonda umumdavlat soliqlari quyidagilardan iborat:

- yuridik va jismoniy shaxslarning daromad solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aktsizlar;
- qimmatli qog'ozlar operatsiyalariga soliq;
- er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun maxsus to'lovlar va soliqlar kiradi.

2.2. Mamlakat umumdavlat soliqlarining tarkibi va ahamiyati

Yuridik va jismoniy shaxslarning daromad solig'i to'lovchilari bo'lib, barcha yuridik va jismoniy shaxslar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hisoblanadi. Soliqqa tortiladigan ob'ekt sifatida yalpi yillik daromad va mos chegirmalar o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan soliqqa tortiladigan daromad tushuniladi.

Yalpi daromad Qozog'istonda va undan tashqaridagi daromadlardan iborat.

Yalpi daromad tarkibiga quyidagilar kiradi:

- tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar;
- ish haqi va pensiya to'lovlari ko'rinishida olingan daromadlar;
- jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olingan daromadlar.

Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar tovar (ish, xizmat)lar realizatsiyasidan olingan daromadlar, bino va inshootlarning realizatsiyasi natijasida qiymatning o'sishidan olingan daromadlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ish haqi ko'rinishida olingan daromadlarga jismoniy shaxslarning yollanib ishlashdan olingan daromadlari, ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar, valyutalar, zargarlik buyumlari, san'at asarlari va antikvialarni sotishdan kelgan daromadlar kiradi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning yalpi daromadidan daromadni olish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar chegiriladi. Shu jumladan, ish haqi bo'yicha, ishchilarning ijtimoiy yordam to'lovlari, xom ashyo xarajatlari, amortizatsiya xarajatlari, sotish xarajatlari, asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari, fondlarga ajratmalar, jarima to'lovlari, zararlar va boshqalar.

Jismoniy shaxslarning daromad manbaidan quyidagilar chegiriladi:

- har yili bir oylik hisob-kitob ko'rsatkichini;
- pensiya badallarini.

Yuridik shaxslar uchun daromad solig'i stavkasi - 30% qilib belgilangan, maxsus iqtisodiy zonalar uchun - 20%.

Agar yuridik shaxslar er faoliyatidan daromad olsa - 10%li stavka asosida soliqqa tortiladi.

Jismoniy shaxslar uchun yillik hisob-kitob ko'rsatkichi:

8700 tanga uchun:

Yillik ish haqining 15 barobarigacha - 5%;

Yillik ish haqining 15dan 30 barobarigacha - 10%;

Yillik ish haqining 30dan 65 barobarigacha - 20%;

Yillik ish haqining 65dan 130 barobarigacha - 30%;

Yillik ish haqining 130dan 350 barobarigacha - 25%;

Yillik ish haqining 350 va undan yuqori - 30%;

Daromad solig'i yuzasidan qator imtiyozlar belgilangan.

Quyidagi yuridik shaxslar daromad solig'idan ozod etilgan:

- ishlovchilarning soni 51% dan ko'pi nogironlardan iborat yuridik shaxslar;
- Ostona shahrida qurilishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar;
- ijtimoiy yordam olgan yuridik shaxslar;
- ilmiy-izlanish tashkilotlari va boshqalar.

Daromad solig'i bo'yicha yillik deklaratsiya 30 aprelgacha taqdim etilishi zarur.

(Oylik hisob-kitob ko'rsatkichi - bu respublika byudjetidan ajratiladigan pensiya va boshqa ijtimoiy to'lovlar hamda soliqda jarima sanksiyalarini qo'llashda ishlatiladigan, har yili qonun asosida o'rnatiladigan ko'rsatkich).

Qo'shilgan qiymat solig'i. QQS Qozog'iston soliq tizimida muhim ahamiyatga ega. Bu soliq tovar (ish, xizmat)larni import qilish jarayonida qo'shilgan qiymatning bir qismini byudjetga ajratilishini bildiradi. Byudjetga to'lanishi kerak bo'lgan QQS realizatsiya qilingan tovar (ish,

xizmat)larga hisoblangan QQS summasi va sotib olingan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlarga to'lanishi lozim bo'lgan summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Soliq to'lovchilari bo'lib, tashkilotlar orqali faoliyat yurituvchi barcha yuridik shaxslar, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar hisoblanadi. Soliqqa tortish ob'ekti soliqqa tortiladigan oborot va soliqqa tortiladigan importdan iborat.

Soliqqa tortiladigan oborot QQSni qo'shmagan holda realizatsiya qilingan tovar (ish, xizmat)lar qiymatiga qo'llaniladigan narxlar asosida hisoblanadi.

QQSi quyidagi xususiyatlarga ega:

Soliqqa tortiladigan oborotga aktsizosti tovarlari bo'yicha aktsizlar summasi kirmaydi.

Import tovarlari bo'yicha soliqqa tortiladigan baza bo'lib, tovar va transport vositalarining bojxona qiymati hisoblanadi. Bu esa bir yoqlama soliqqa tortish tamoyiliga mos keladi.

Hozirgi kunda QQSning 3ta stavkasi amal qiladi:

- 20%li standart stavka;
- 10%li engillashtirilgan stavka (oziq-ovqat mahsulot-lari, chorva va parranda mahsulotlari, bolalar iste'mol mahsulotlari uchun);
- 0%li stavka.
- 0%li stavka quyidagi hollarda qo'llaniladi:
- eksport operatsiyalariga;
- xalqaro tashish xizmatlariga;
- o'zi ishlab chiqargan tikuv, to'qimachilik, charm-poyafzal mahsulotlariga (Qozog'iston Respublikasida realizatsiya qilinsa);

«Ostona-yangi shahar» maxsus iqtisodiy zonada tovarlar realizatsiya qilinganda.

Import qilinadigan tovarlar uchun QQS stavkasi 20% qilib belgilangan.

Soliqni to'lash muddatlari - deklaratsiya asosida har oyning 15-kunigacha belgilangan. Agar QQS bo'yicha summasi 1000 karra oylik hisob-kitob ko'rsatkichidan yuqori bo'lsa, oyning 25-kunida va keyingi oyning 5- kunida soliq to'lanadi.

Quyidagi oborotlar QQSga tortilmaydi:

- bino va turar-joy sotilganda va ijaraga berilganda;
- erdan foydalanish huquqi sotilganda, bunda erdan avtomobil vositalarini saqlash uchun foydalanilmaganda;
- moliya xizmatlari;
- notijorat tashkilotlar operatsiyalari, agar bu operatsiyalar bolalarni, qariyalarni, nogironlarni ijtimoiy himoyalash, madaniyat, fan va sportni rivojlantirishga yo'naltirilsa;
- geologiya - qidiruv xizmati;
- davlat mulkini xususiylashtirish operatsiyalari;
- tibbiyot xizmatlari.

Aktsizlar. Bu soliqqa Qozog'istonda ishlab chiqarilgan tovarlar va Qozog'istonga import qilingan tovarlar tortiladi.

Soliq stavkalari tovarlar qiymatiga nisbatan foizlarda yoki fizik hajmga nisbatan qat'iy summada belgilanadi.

Bugungi kunda Qozog'istonda quyidagi aktsizosti tovarlar ro'yxati belgilangan:

- spirt;
- aroq;
- o'tkir spirtli ichimliklar;
- qadoqlangan sok va balzamlar;
- vino;
- konyak;
- shampan vinosi;
- pivo;

- vino mahsulotlari;
- tamaki mahsulotlari;
- osyotr va lasos baliqlari go'shti va ikrasi, tansiq ovqatlari;
- oltindan, platinadan va kumushdan yasalgan zargarlik buyumlari;
- billur buyumlar;
- engil avtomobillar;
- benzin, dizel yoqilg'isi;
- o'q otadigan va gazli qurollar;
- neft;
- elektroenergiya;
- o'yin biznesi.

Qimmatbaho qog'ozlarni emissiya qilganlik uchun yig'im

Ushbu soliqning to'lovchilari bo'lib, qimmatbaho qog'ozlarni emissiyasini ro'yxatdan o'tkazadigan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Soliqning ob'ekti bo'lib, qimmatli qog'ozlarning nominal bahosi hisoblanadi.

Soliqning stavkasi qimmatbaho qog'ozlarning birlamchi sotilishida yoki ro'yxatga olinishiga nisbatan 0,1%, ikkilamchi ro'yxatga olinishida - 0,5% qo'llaniladi.

Er osti boyliklaridan foydalanuvchilarning maxsus soliq va to'lovlari bonuslar, royalti, geologiya ishlarini o'tkazish huquqi uchun to'lovlardan va yuqori foyda olganlik uchun soliqlarni o'z ichiga oladi. Bonus va royaltilarning barcha ko'rinishlari soliqqa tortiladigan daromadni aniqlashda ajratma bo'lib hisoblanadi.

2.3. Mahalliy soliqlar va yig'implarning undirish tartibi

Qozog'istonda mahalliy soliqlar va yig'implarni quyidagilar tashkil etadi:

- tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulkiga soliq;
- transport vositalariga soliq;
- alohida faoliyat turi bilan shug'ullanish huquqi uchun yig'implar;
- auksiondagi savdo-sotiqqa yig'im;
- er solig'i;
- er osti boyliklaridan foydalanilganlik uchun soliq va boshqalar kiradi.

Er solig'ining ob'ekti er maydonlaridir.

Soliqqa tortiladigan erlar 5 guruhga bo'linadi:

1. Qishloq xo'jaligi erlari;
2. Aholi punktlari;
3. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa uchun belgilangan erlar;
4. Maxsus qo'riqlanadigan tabiiy hududlar;
5. O'rmon erlari.

Er solig'ining to'lovchilari bo'lib, yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Qozog'istonda er solig'ining o'ziga xos xususiyati, er solig'i summasi er maydonining unumdorlik darajasi, joylashgan o'rni, suv bilan ta'minlanganlik darajasiga qarab hisoblanadi va bu er egasi va erdan foydalanuvchining xo'jalik va boshqa faoliyati natijasiga bog'liq emasdir.

Soliqni to'lash muddatlari - qishloq xo'jaligi er egalari va foydalanuvchilari hamda jismoniy shaxslar hisobot yilining 1 oktyabrigacha to'laydilar.

Qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmagan erlar uchun yuridik shaxslar er solig'i summasini teng ulushlarda 25 fevral, 25 may, 25 avgust va 25 noyabrda to'laydilar.

Yagona er solig'i.

Yagona er solig'ining to'lovchilari bo'lib, dehqon (fermer) xo'jaliklari hisoblanadi.

Soliqning ob'ekti sifatida Qozog'iston Respublikasi hukumati tomonidan belgilangan erning baholangan qiymati inobatga olinadi.

Yagona er solig'ining stavkasi har yili erning baholangan qiymatiga nisbatan 0,1% qilib belgilangan.

Soliqni to'lash muddati 2 qismga bo'lib to'lanadi:

- 1) hisobot yilining 20-oktyabrigacha;
- 2) keyingi yilning 20-martigacha.

Mol-mulk solig'i.

Mol-mulkka ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

Yagona er solig'i to'lovchilari mol-mulk solig'i to'lovchilari tarkibini tashkil etmaydi.

Yuridik shaxslar uchun mol-mulkning qoldiq qiymati ob'ekt sifatida xizmat qiladi.

Jismoniy shaxslar uchun ob'ekt bo'lib, turar joy, garaj, boshqa inshootlar qiymati hisoblanadi.

Soliqning stavkasi:

Yuridik shaxslar uchun 1% qilib belgilangan.

Jismoniy shaxslar uchun:

- 1000000 tangagacha - 0,1%;
- 1000000dan 2000000 t.gacha - 0,15%;
- 2000000dan 3000000 t.gacha - 0,2%;
- 3000000dan 4000000 t.gacha - 0,3%;
- 4000000dan 5000000 t.gacha - 0,4%;

5000000dan 6000000 t.gacha - 0,5%;
6000000dan 7000000 t.gacha - 0,6%;
7000000dan 8000000 t.gacha - 0,7%;
8000000dan 9000000 t.gacha - 0,8%;
9000000dan 10000000 t.gacha - 0,9%;
10000000dan yuqori - 1,0%.

Mol-mulk solig'ini to'lash muddati.

Yuridik shaxslar mol-mulk solig'i hisobot yilining 25-fevral, 25 may, 25 avgust va 25 noyabrda to'lashadi.

Jismoniy shaxslar uchun mol-mulk solig'i hisobot yilining 1 oktyabridan kechiktirmay to'lanishi lozim.

Qozog'iston Respublikasi soliqlarni boshqaruvchi organlari bo'lib, Davlat Daromadlar Vazirligiga qarashli soliq xizmati organlari, Moliya politsiyasi hisoblanadi. Moliya politsiyasi yuridik va jismoniy shaxslarning barcha pul tushumlarini, buxgalteriya hisobini, hisobotlarini, naqd pullarni, qimmatli qog'ozlar, hisob-kitoblar va boshqa soliq to'lovlariga oid xizmatlarni tekshiradi va nazorat qiladi.

O'z-o'zini tekshirish va takrorlash uchun savollar:

1. Qozog'iston Respublikasi Soliq Kodeksi qachon qabul qilingan?
2. Amaliyotga kiritilgan Soliq Kodeksining ahamiyatini gapirib bering.
3. Qozog'iston Respublikasi soliq tizimi necha pog'onali qilib belgilangan?
4. Qozog'istonda umumdavlat soliqlarini qaysi soliqlar tashkil etadi? Mahalliy soliqlarni-chi?
5. Yuridik shaxslarning daromad solig'ini ob'ekti nima va soliq to'lovchilari kimlar?
6. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq stavkalari qaysi tartib asosida belgilangan?
7. Hozirgi kunda QQS bo'yicha qaysi stavkalar amal qiladi?
8. Qozog'istonda er solig'ini undirish mexanizmi qaysi tartibda belgilangan?
9. Mol-mulk solig'ining to'lovchilari kimlar va uni to'lash muddatlarini aytib bering.
10. Qozog'iston Respublikasi soliqlarni boshqaruvchi organlari bo'lib kimlar hisoblanadi?

III-BOB. Turkmaniston mamlakati soliq tizimining o'ziga xosligi

3.1. Turkmaniston mamlakati soliq tizimida to'g'ri soliqlarning ahamiyati

Turkmaniston mamlakati soliq tizimida daromad solig'i asosiy soliq turlaridan biri bo'lib, muhim ahamiyatga egadir.

Turkmanistonda o'z faoliyatini olib boruvchi va daromad oluvchi mahalliy va xorijiy yuridik shaxslar, yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'ini to'lovchilari hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyati natijasida olingan har qanday foyda Turkmaniston pul birligida to'lanadi.

Soliqqa tortish ob'ekti va daromad (foydani) hisoblash tartibi.

Ushbu soliqning ob'ekti bo'lib, korxonaning yalpi daromadi hisoblanadi. Yalpi daromad bo'lib, tovar (ish, xizmat)lar, asosiy vositalar, boshqa mulklar va operatsiyalardan olingan daromadlardan qilingan xarajatlar chegirilgandan so'ng o'rtasidagi farq hisoblanadi.

Tovar (ish, xizmat)larni sotishdan olingan foyda (zarar) shu tovarlarni sotishdan tushgan tushumdan ishlab chiqarish va sotish xarajatlari ayirmasiga teng. Bunda tushum summasiga QQS va aktsiz solig'i kiritilmaydi.

Tovar va xizmatlar tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibi Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Ekspor operatsiyalari amalga oshirilgan paytda tushum summasi tovar sotilgan kundagi valyutaning Turkmaniston Markaziy Banki belgilagan kursi bo'yicha hisob-kitob qilinadi. Tovar va xizmatlar bepul berilganda almashingan yoki amaldagi narxdan 30% kam narxda sotilgan taqdirda yangi tushum qilib tovarning bozordagi erkin narxi inobatga olinadi. Tugatilayotgan korxonalarda qolib ketgan tovarlarning sotilishidan yalpi tushum tovarlarning amaldagi narxlari darajasida aniqlanadi.

Korxonalar tomonidan asosiy vositalar va boshqa mulklarning boshlang'ich narxdan past narxda sotishdan tushgan yalpi tushum summasi asosiy vositalarning bozor narxlari darajasida aniqlanadi. Bozor narxi aktivlarning qoldiq qiymatidan kam bo'lganda, asosiy vositalarning qoldiq qiymati asos qilib olinadi. Soliqqa tortish maqsadida bozor narxi deganda, soliqqa tortish operatsiyalari jarayonida tovarlar ayirboshlash, bozorda talab va taklif asosida shakllangan narx bo'yicha amalga oshiriladi.

Savdo-sotiq operatsiyalarida daromadlardan tashqari daromadlari deganda, boshqa korxonalar faoliyatida qatnashishi orqali, mulkni ijaraga berish orqali, shuningdek, boshqa operatsiyalardan daromadlar, bevosita tovar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ishlar, xizmatlar va ularning realizatsiyasi kiradi.

Daromad solig'i Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi belgilab bergan tartib qoidalar asosida hisoblanadi va undiriladi.

Yalpi daromadlar mol-mulk solig'i, dividendlar va foizlardan, aktsiyalardan, obligatsiyalardan va chet el qimmatli qog'ozlardan daromadlar hisobiga kamaytiriladi.

Birjalar uchun soliq ob'ekti bo'lib, brokerlik o'rinlarini sotishdan, ijaraga berishdan, birjada amalga oshirilgan tovar- pul ayirboshlashdan, shuningdek, valyuta va chet el mulklaridan hamda boshqa tijorat faoliyatidan olingan daromadlar hisoblanadi.

Agar korxonalar daromad solig'ini deklaratsiya qilmagan taqdirda yoki soliq summasi hisoblanmaganda, soliq organlari baholangan tartibda me'yoriy soliq summasini belgilab berishga majburlar. Bunda soliq summasi avvalgi soliq summasidan kelib chiqib, unga 1,5 koeffitsient qo'llash orqali hisoblanadi.

Chet ellik yuridik shaxslar daromadlarini aniqlashda Turkmanistondagi doimiy vakillik orqali bajarilgan faoliyat nazarda tutiladi. Soliqqa tortiladigan daromad Turkmanistonda olgan daromadlari inobatga olinadi.

Agar yuridik shaxsning chet elda va Turkmanistonda olgan daromadlari ajratilmagan bo'lsa, soliqni undiruvchi organ va soliq to'lovchi yuridik shaxsning kelishuviga asosan aniqlanishi mumkin.

Shuningdek, yuridik shaxsning Turkmanistonda olgan daromadini to'g'ridan-to'g'ri aniqlashning imkoniyati bo'lmasa, soliq organi yalpi daromad va ishlab chiqarish harajatlaridan kelib chiqib 25% rentabellik darajasini qo'llagan holda soliq undirilishi mumkin.

Daromad (foyda) solig'i stavkasi – 20% qilib belgilangan.

Banklar, Turkmaniston davlat xom ashyo birjasi, boshqa birjalar, brokerlik kontoralar, vositachi korxonalar daromadlariga soliq alohida tartib asosida hisob-kitob qilinadi.

Soliqqa tortiladigan daromad quyidagilar hisobiga qisqartiriladi:

- korxonalar daromadi hisobidan moliyalashtiriladigan, uning balansida turadigan ob'ektlar, shuningdek sog'liqni saqlash idoralari, xalq ta'limi, madaniyat va sport, maktabgacha ta'lim idoralari va dam olish lagerlari, qariyalar va nogironlar uylari, uy-joy fondlari uchun harajatlar summasiga, bu o'z navbatida umumiy harajatning 30% idan oshmasligi kerak;

- ekologiya va sog'liqni saqlash fondlariga ajratmalar, xalq ta'limi, ijtimoiy himoya uchun ajratmalar summasiga, bu summa soliqqa tortiladigan daromadning 5% ida oshmasligi kerak;

- ta'lim idoralariga yo'naltirilgan, ular ehtiyoji uchun sarflanadigan, shuningdek, ta'lim taraqqiyoti uchun shu idoraga yo'naltirilgan summaga;

- jismoniy shaxslarning dividendlari summasiga, agar ular korxonaning ichki investitsiyasi uchun, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa;

- yangi turdagi xalq iste'moli tovarlarini ishlab chiqarish va ularni sotishdan daromadlarning jami summasiga - 1 yili, 50% ga - 2 yili (bunda iste'mol tovarlari ro'yxati Turkmaniston Iqtisodiyot vazirligi tomonidan belgilab beriladi);

- sotilgan tovarlar va xizmatlarning bahosini tushirib sotishdan daromadlarning 50% iga;

- tovar ishlab chiqarishda fizik hajmini ortishidan foydaning 50% iga.

Quyidagi yuridik shaxslar daromad (foyda) solig'ini to'lashdan ozod etilganlar:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi va sotuvchi, xalq iste'moli tovarlari va qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi, yangi tashkil qilingan korxonalar. Agar shu sohadan olgan daromadlari yalpi tushumning 70% dan ko'p bo'lsa, birinchi yili to'liq ozod etiladi, ikkinchi yili 50% ga engillashtiriladi. Agar ularning faoliyati 3 yilgacha davom etmasa, soliq summasi to'laligicha undirib olinadi.

- diniy uyushmalar;

- nogironlarning jamoat tashkilotlari va ularning korxonalari;

- nogironlarning protez - ortopediya buyumlarini ishlab chiqaruvchi, shuningdek, ular uchun transport vositalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar.

Chet ellik yuridik shaxslarni Turkmanistonda olgan daromadlarini soliqqa tortish

Chet ellik yuridik shaxslari dividendlardan, foizlardan, shuningdek mualliflik huquqi daromadlaridan, ijara to'lovlaridan, ish va xizmatlar ko'rsatishdan va boshqa daromadlaridan 15% stavkada soliqqa tortiladilar.

Turkmanistondagi daromad manbalari sifatida Turkmaniston yuridik shaxslari, yuridik shaxs maqomini olmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar, chet ellik yuridik shaxsning Turkmaniston qonunchiligiga muvofiq hisobga olingan va Turkmaniston hududida joylashgan chet ellik yuridik shaxslarning filiallarini daromadlari inobatga olinadi.

Turkmanistonda kichik korxonalarni soliqqa tortish tartibi

Kichik korxonalar deganda, Turkmanistonda nodavlat mulki shaklida faoliyat yurituvchi va belgilangan ishchilar sonidan iborat korxonalariga aytiladi.

Kichik korxonalarining ishchilar soni quyidagi tartib asosida o'rnatilishi lozim:

- 50 kishi-texnik ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi, xalq iste'mol tovarlarini ishlab chiqaruvchi, qurilish va ta'mirlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar uchun;

- 10 kishi-ulgurji savdo korxonalarini uchun, shuningdek vositachilik va maishiy xizmat ko'rsatuvchi korxonalar uchun;

- 25 kishi-boshqa turdagi korxonalar uchun.

Kichik korxonalar bo'lishi uchun asosiy faoliyatdan tushgan tushum yalpi tushumning 80% dan ko'pni tashkil qilishi lozim.

Qonunchilikka muvofiq kichik korxonalar soddalashtirilgan tartibda soliqqa tortiladi. Soddalashtirilgan soliq tizimini tanlash korxonaning o'z ixtiyoriga bog'liq. Soddalashtirilgan soliq tizimi tanlangan taqdirda, mahalliy soliq organi buni tasdiqlashi kerak bo'ladi.

Umumiy tartib asosida soliqqa tortishda quyidagi stavkalar qo'llaniladi:

- 10%-texnik ishlab chiqarish mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi, xalq iste'mol tovarlarini ishlab chiqaruvchi, qurilish va ta'mirlash xizmatini ko'rsatuvchi korxonalar uchun;

- 30% - 10 kishilik korxonalar uchun;

- 20% - boshqa kichik korxonalar uchun.

Soddalashtirilgan tizimga o'tish uchun navbatdagi kvartal boshlanishidan 30 kun avval kichik korxonalar soliq organlariga yozma ariza topshirishlari kerak. Soliq organlari ariza topshirilgan kundan so'ng bir kun ichida qayd qilinadi.

Soddalashtirilgan soliq tizimi aholi punktida ko'rsatilgan faoliyat turlariga qarab yagona soliq deb qaralishi mumkin. Aholi punktlarida ko'rsatilmagan korxonalar, ya'ni aktsizosti tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar, sug'urta tashkilotlari, banklar, brokerlik kontoralari, o'yinlar o'tkazishdan daromad ko'radigan korxonalar hisoblanadi.

Soddalashtirilgan soliq tizimida soliq ob'ekti bo'lib, hisobot davrida qo'lga kiritilgan tovarlar, xizmatlar va mulkni sotishdan olingan daromadlar tushuniladi.

Soddalashtirilgan soliq tizimidagi korxonalar uchun yalpi daromadlardan yagona soliq stavkalari quyidagicha belgilangan:

- 20% - 50 kishilik korxonalar uchun;

- 24% - 10 kishilik korxonalar uchun;

- 22% - boshqa kichik korxonalar uchun.

Soddalashtirilgan soliq tizimidan umumiy tartibga o'tishni xohlagan korxonalar hisobot yili tugashidan 15 kun avval yozma ariza berishlari kerak. Soliq organlari arizani ko'rib chiqib 15 kun ichida javob beradilar.

3.2. Turkmaniston mamlakati davlat byudjetida egri soliqlarning o'рни va ahamiyati

Turkmaniston mamlakati davlat byudjetini shakllantirishda egri soliqlarning o'рни muhim ahamiyatga ega. Egri soliqlar ichida asosiy salmoqni qo'shilgan qiymat solig'i egallaydi.

Turkmanistonda hisoblangan QQS milliy valyutasida to'lanadi.

QQS ishlab chiqarilgan tovar (ish, xizmat)ga nisbatan solinadi.

Ushbu soliqning to'lovchilari bo'lib, quyidagi shaxslar hisoblanadi:

- chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslar;
- Turkmaniston hududida joylashgan tovar (ish, xizmat)lar sotishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar, ularning sho'balari va tarmoqlari.

- Turkmaniston hududida joylashgan va ishlab chiqarishdan tashqari boshqa tijorat operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi tadbirkor shaxslar.

Soliqning ob'ekti bo'lib, Turkmaniston hududida sotilgan tovar (ish, xizmat)lar oboroti va eksport-import operatsiyalar-dagi oborotlar hisoblanadi.

Quyidagilar soliqqa tortiladigan oborotni tashkil etadi:

- ishlab chiqarish va iste'mol uchun sotilgan tovar (ish, xizmat)lar oboroti;
- xarid qilib qayta sotilgan tovarlar;
- tovar (ish, xizmat)larni boshqa tovar (ish, xizmat)larga almashtirish - barterdagi oboroti;
- tovar (ish, xizmat)larni yuridik va jismoniy shaxslarga bepul berishdagi oboroti.

Quyidagilar QQS dan ozod etilgan:

- Turkmaniston hududi orqali o'tgan chet el yuklari, transport va jo'natish xizmatlari;
- diplomatik va elchixonaga ma'muriyati uchun maxsus tovar va xizmatlar;
- mahalliy yo'lovchi tashish xizmatlari (taksidan tashqari);
- uy ijaralari;
- sug'urta va qayta sug'urta operatsiyalari, sug'urta agentlari tomonidan bajariladigan va shunga o'xshash xizmatlar;

- kredit berish;
- monetar investitsiya, valyuta to'lovi, transfert, aktsiyalar, brokerlikka bog'liq operatsiyalar;

- valyuta, fondlar va banknotalar aylanishiga bog'liq operatsiyalar;
- rahbar xodimlar tomonidan bajarilgan operatsiyalar;
- diniy tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan tadbirlar;
- ko'rlar va karlar korxonalarida ishlab chiqarilgan tovarlar;
- patent-litsenziya operatsiyalari;
- tibbiy xizmatlar va tibbiy asbob-uskunalar, protez-ortopediya buyumlari, nogironlar inventarlari;

- byudjet hisobidan moliyalashtiriladigan talabalar, o'quvchilar;
- shifoxona bemorlari tushliklari uchun mahsulotlar;
- psixiatriya va psixonevrologiya institutlari va nogironlar tashkilotlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovar (ish, xizmat)lar;

- jami xodimlarning 50% dan ortig'ini nogironlar tashkil etgan tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan tovar (ish, xizmat)lar.

QQC stavkasi 20% qilib belgilangan. QQS summasini o'z ichiga olgan tovar (ish, xizmat)lar sotilayotganda 16,67%li QQS stavkasi qo'llaniladi.

Soliqni hisoblab chiqarish

Tovar (ish, xizmat)lar sotilayotganda QQS summasi tovar (ish, xizmat)larning bahosiga qo'shiladi. Tovar (ish, xizmat)lar aholiga ijaraga berilganda, QQS ijaraga haqi tarkibiga kiritiladi.

Tovar (ish, xizmat)larni Turkmaniston hududida va chet elga sotayotganda, taklif qiluvchilar tomonidan Turkmanistonda joylashgan mahsulotlari qiymatiga nisbatan soliq to'lanadi.

QQS ni to'lash shakli va muddati Turkmaniston Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi hamda Bosh Milliy Soliq Inspektsiyasi tomonidan belgilanadi.

Turkmaniston Bosh Milliy Soliq Inspektsiyasi qoidalari bo'yicha to'lovchilarning majburiyatlari tartibga solinadi va soliq inspektorlarining tekshirish shakllari belgilanadi.

Aktsiz solig'i

Aktsiz solig'ining ob'ekti bo'lib, o'zlari ishlab chiqargan aktsizosti tovarlarning realizatsiyasidan tushgan oborot hisoblanadi. Aktsizosti tovarlar ro'yxati va stavkasi davrlar mobaynida o'zgarib turadi. Bu ro'yxat asosan spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari, neft mahsulotlari, avtomobillar, qimmatbaho buyumlar va boshqalarni o'z ichiga olgan.

Turkmanistonda ishlab chiqarilgan tovarlar bo'yicha aktsiz solig'i stavkalari quyidagicha belgilangan (mahsulotlarga aktsiz solig'i narxlarga nisbatan foizda ko'rsatilgan):

- Pivo -10%;
- Vino, kuchli spirtli ichimliklar, likyor spirt darajasi qarab:
 - - 20% gacha-15%;
 - - 21% dan 30% gacha –30%;
 - - 31% dan 40% gacha – 40%;
 - - 40% dan yuqori– 55%.
- Benzin – 40%
- Dizel moyi – 40%
- Turkmanistonga import qilinadigan tovarlar bo'yicha aktsiz solig'i quyidagicha:
 - Pivo – 0,5 AQSh dollari har litrga;
 - Kuchli vino – 1,5 AQSh dollari har litrga;
 - Spirt (meditsina spirti kirmaydi)- 4,0 AQSh dollari har litrga;
 - Kuchli spirtli ichimliklar, likyor – 3,0 AQSh dollari har litrga;
 - Tamaki mahsulotlari – bojxona bojining 150%i, bunda har bir paketga 1 dollardan kam

bo'lmasligi lozim;

• Boshqa sanoat tamaki mahsulotlari va uni o'rnini bosuvchi mahsulotlar 10 AQSh dollari har kg.ga;

- Qimmatbaho buyumlar - bojxona bojining 15% i;
- Avtomobillar:
 - motor hajmi 2000 sm.kub gacha- 0,25 AQSh dollari har sm.kubga;
 - motor hajmi 2000 sm.kubdan ko'p bo'lsa – 0,35 AQSh dollari har sm.kubga.

Bojxona boji

Turkmanistonda import tovarlariga bojxona boji quyidagi tartib bo'yicha belgilangan:

• pishloq (barcha turiga) - 20% har kg.ga (0,25 AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda);

- tabiiy asal - 30% har kg.ga (0,25 AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda);
- kartoshka - 20% har kg.ga (0,25 AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda);
- tomat, qalampir - 10% har kg.ga (1 AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda);
- osh tuzi (oliy navdan tashqari) - 100% har kg.ga (0,25 AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda);

• mevalar va yong'oqlar (limon, uzum, qovun, tsitrus va tropik mevalardan tashqari) - 20% har kg.ga (0,20 AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda);

- limon - 100% har kg.ga (1 AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda);
- uzum - 100% har kg.ga (1 AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda);
- qovun va tarvuzlar - 100% har kg.ga (0,5 AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda);
- bug'doy - 50% har kg.ga (0,17 AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda);
- o'simlik yog'i - 10% har kg.ga (0,1 AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda);

- paxta yog'i - 100% har kg.ga (1 AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda);
- saqich - 20% har 100 donaga (1 AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda);
- muzqaymoq - 50% har kg.ga (0,5 AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda);
- sovun - 50% har kg.ga (0,25 AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda);
- paltolar - 100%;
- ipak mahsulotlari – 50%;
- sintetika mahsulotlari - 50%;
- poyafzallar – 30%;
- paxta tolalari – 100%.

Turkmanistonda jismoniy shaxslar tomonidan eksport qilinadigan tovarlarga bojxona boji quyidagi tartib asosida belgilangan:

- qo'y va echki go'shti - har kg.ga 0,5 AQSh dollar;
- suyuq gaz - har kg.ga 0,25 AQSh dollar;
- baliq uni - har kg.ga 0,5 AQSh dollar;
- terilar:
 - sigir terisi - har tonnaga 650 AQSh dollar;
 - qo'y va echki terisi - har donaga 1,2 AQSh dollar;
 - nostandart terilar - har tonnaga 500 AQSh dollar;
- taxta va taxta mahsulotlari - 100% har m.kubga (200 AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda);
- paxta tolalari - 100% har kg.ga (1,75 AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda);
- ipak mahsulotlari - 100% har kg.ga (15 AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda);
- tayyor fabrikatlar - 100% har kg.ga (4,5 AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda).

Jismoniy shaxslarning bojxona bojini to'lamasdan Turkmanistonga eksport qilishi mumkin bo'lgan mahsulotlar:

- oyoq kiyimlar;
- yarim fabrikatlar;
- kiyimlar;
- spirtli mahsulotlar;
- engil mashinalar;
- televizorlar va radiolar;
- gilamlar;
- mineral suvlar (sentyabrdan aprelgacha bo'lgan muddatda);
- spirtsiz ichimliklar (sentyabrdan aprelgacha bo'lgan muddatda).

3.3. Mol-mulk solig'ining mohiyati va hisoblash tartibi

Mulkka soliq Turkmaniston valyutasida to'lanadi va Turkmanistonning markazlashgan byudjeti hisobiga yo'naltiriladi.

Mol-mulk solig'i tulovchilari bo'lib, mol-mulkka ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadi.

Mol-mulk solig'i stavkalarini, to'lash tartibini Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

Mol-mulkning soliqqa tortish bazasi bo'lib, mulkning narxi hisoblanadi. Soliq bazasiga yuridik shaxslarning va Turkmanistondan tashqarida – rezidentlarga tegishli mol-mulkning narxi inobatga olinadi.

Soliqqa tortilmaydigan ob'ektlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- er;
- gazoprovodlar, temir yo'l liniyalari, avtomobil yo'llari, aloqa liniyalari, postlar, ularni ekspluatatsiya qilish uchun mo'ljallangan injenerlik binolari;
- avtomobil transporti;
- davlat rezervlari mulki;
- diniy tashkilotlarga tegishli mulklar;
- uy-joy xo'jalik korxonalariga tegishli mulklar.

Mol-mulk solig'ining stavkasi soliq bazasiga nisbatan 1% qilib o'rnatilgan. Soliq to'lovchi har kvartal uchun 0,25% dan, 0,5% yarim yillik uchun, 0,75% - 4 oy uchun amalga oshirilishi mumkin.

Soliqqa tortish davri kalendar yiliga teng belgilangan.

Turkmanistonda mol-mulk solig'i bo'yicha qator imtiyozlar berilgan.

Quyidagilar mol-mulk solig'iga tortilmaydi:

- a) Turkmanistonning Markaziy Banki, byudjet tashkilotlarining mulki;
- b) qishloq xo'jaligi mahsulotini saqlash va ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan mulklar;
- v) ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport, yong'in xavfsizligi va fuqarolar mudofaasi ehtiyojlari uchun ishlatiladigan mulklar;
- g) Turkmaniston Davlat byudjeti hisobidan moliyalash-tiriladigan qurilishi tugallanmagan ob'ektlar;
- d) qishloq joylaridagi aloqa bo'limlari va telefon stantsiyalari inshootlari;
- e) nogironlar tashkilotiga tegishli mol-mulklar;
- z) asosiy ishlab chiqarish fondlari;
- k) Turkmanistonning «Daromadga soliq» Qonuniga binoan soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo'llovchi kichik korxonalar mulki;
- l) «Uglevodorodli resurslar» uyushmasi mol-mulklari.

Turkmanistonning «Erkin tashabbuskorlik iqtisodiy zonasi haqida»gi Qonuniga muvofiq erkin tashabbuskorlik iqtisodiy zonasida faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar birinchi besh yil davomida belgilangan soliqlarning 50% ini to'laydilar.

Mol-mulk solig'ini to'lash muddati.

Mol-mulk solig'i summasi soliq to'lovchilar tomonidan mustaqil hisoblanadi. Bu soliq Turkmaniston Davlat byudjetiga yo'naltiriladi.

Mol-mulk solig'i to'lovchilari tomonidan soliq organlariga topshiradilar. Soliqni to'lash muddati quyidagicha:

- 1 kvartal – joriy soliq yilining 20 apreligacha;
- 1-yarim yillik - joriy soliq yilining 20 iyuligacha;
- 9 oyligi - joriy soliq yilining 20 oktyabrigacha;
- 1 yil – kelgusi yilning 25 yanvarigacha belgilangan.

O'z-o'zini tekshirish va takrorlash uchun savollar:

1. Turkmaniston Respublikasi soliq tizimi necha pog'onali qilib belgilangan?
2. Turkmaniston soliq tizimida to'g'ri soliqlarning byudjetdagi o'rnini tahlil qiling.
3. Byudjet daromadlarini shakllantirishda daromad solig'ining rolini aytib bering.
4. Chet ellik yuridik shaxslar qaysi tartib asosida soliqqa tortiladilar?
5. Daromad (foyda) solig'ida soliqqa tortiladigan daromaddan nimalar chegiriladi?
6. Qaysi yuridik shaxslar daromad (foyda) solig'ini to'lashdan ozod etiladilar?
7. Kichik korxonalar uchun soliqqa tortish tartibi qanday belgilangan?
8. Turkmaniston davlat byudjetida egri soliqlarning o'rnini tahlil qiling.
9. Turkmanistonda QQS hisoblash tartibi qanday belgilangan?
10. Import qilinadigan tovarlarga aktsiz solig'ining qaysi stavkalari amal qiladi?
11. Turkmanistonda mol-mulk solig'ini undirish mexanizmi qaysi tartibda belgilangan?
12. Bugungi kunda mol-mulk solig'ining qaysi stavkalari amal qiladi?

IV-BOB. Tojikiston mamlakati soliq tizimining tuzilish asoslari

4.1. Tojikiston mamlakati soliq tizimiga umumiy tavsif

Tojikiston Respublikasi soliq tizimi SSSR parchalangandan so'ng 1991 yilning oxirlarida va respublika davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng shakllanib bordi. Soliq tizimining tashkil topishi va rivojlanishi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqich respublikalar orasidagi iqtisodiy aloqalarning uzilishi, yakka xalq xo'jaligiga o'tilishi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqirozning paydo bo'lishi, ishlab chiqarish sur'atlarining qisqarishi sharoitida amalga oshirildi va bu bosqichda soliq tizimining rivojlanishi juda sust kechdi. 1991-1998 yillar davomida Tojikiston soliq siyosatida va soliq boshqaruvida alohida qonuniy va me'yoriy-huquqiy hujjatlar joriy qilindi. Lekin buning natijasida soliq tizimi funktsiyalarini soliq tushumlari hisobidan boshqarishda byudjetdan qoplash mumkin emasligini ko'rsatdi.

Ikkinchi bosqichda jahon soliqqa tortish modellari va chet el tajribalarini o'rganish, tahlil qilish, asosida qator soliq islohatlari o'tkazildi. 1999 yil 1 yanvarda amalga kiritilgan Soliq Kodeksi mamlakat soliq tizimini va soliq xizmatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Soliq Kodeksida mamlakat soliq tizimini boshqarish va tartibga solish tamoyillari, soliqlarni joriy qilish tartibi, soliqlarga o'zgartirish kiritish va bekor qilishni belgilash, soliq agentlari va soliq munosabatlarida qatnashuvchi boshqa shaxslarni aniqlash, soliqqa tortish ob'ektini aniqlash tartibi, soliq majburiyatlarini bajarilishi, soliqqa oid qonunbuzarliklar uchun javobgarlikka tortish tartibi yoritib berilgan. Soliq Kodeksining yaratilishi mamlakatdagi soliq munosabatlarini tartibga solish, ishlab chiqarishning o'sishini ta'minlash, iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish va ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish kabi masalalarni hal etishga qaratildi.

Hozirgi bosqich-bu soliq tizimining shakllangan bosqichi bo'lib, soliq organlari tarkibini takomillashtirish, amaldagi soliqlarni hisoblash mexanizmini takomillashtirish, soliq stavkalarini qayta ko'rib chiqish va soliq imtiyozlarini samarali berilishini ta'minlashdan iboratdir.

Soliq tizimining asosiy hujjatlaridan biri 1992 yilda Respublika Oliy Kengashi tomonidan qabul qilingan «Tojikiston Respublikasi soliq tizimi to'g'risida»gi Qonun hisoblanadi.

Shu yillar davomida asosiy soliqlarni tartibga soluvchi qator qonunlar qabul qilindi, jumladan, «Korxonalar va tashkilotlar daromadiga soliq to'g'risida», «Qo'shilgan qiymat solig'i to'g'risida», «Aksiz solig'i to'g'risida», «Tojikiston Respublikasi fuqorolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar daromadiga soliq to'g'risida», «Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i to'g'risida», «Sotish solig'i to'g'risida» va «Er solig'i to'g'risida» gi Qonunlarni keltirishimiz mumkin.

Soliq Kodeksida mamlakat soliq siyosati, soliq tizimi va soliq xizmatlarini shakllantirish yo'nalishlari ko'rsatib berilgan. Bu hujjat Tojikiston Respublikasi soliq tizimining umumiy tartibini, soliqlar va yig'implarni hisoblash mexanizmi, ularni bekor qilish va soliq to'lovchilar hamda soliq agentlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib boradi. Ushbu qonuniy hujjatning amaliyotga kiritilishi mamlakat soliq tizimini tuzilish asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi.

Soliq Kodeksida nazarda tutilgan, soliq tizimiga kiritilgan o'zgarishlar asosan quyidagi vazifalarni hal qilishga yo'naltirilgan:

- tushunarli, adolatli va barqaror soliq tizimini tashkil etish, Tojikiston Respublikasining barcha hududlarida uning hamma elementlarini o'z ichiga olgan huquqiy mexanizmlarni o'rnatish;
- umumdavlat va xususiy mafaatlarni muvofiqlashtirishni ta'minlaydigan, tadbirkorlikni rivojlanishini boshqaradigan, mamlakat milliy boyligini va uning fuqarolarining farovonligini oshiradigan hamda investitsiya faoliyatini faollashtiradigan mukammal soliq tizimini shakllantirish;

- soliqning yagona huquqiy asosini yaratish, soliq boshqaruvini yaxshilash va soliqqa oid huquqbuzarliklari uchun javobgarlik tizimini tashkil etish.

4.2. Umumdavlat soliqlarning byudjetdagi o'рни va undirish tartibi

Tojikiston Soliq Kodeksiga asosan 14 ta umumdavlat va 3 ta mahalliy soliqlar qayd etilgan. Umumdavlat soliqlarining tushumlari Respublika mahalliy byudjetlari hamda Respublika fodlari o'rtasida taqsimlanadi. Mahalliy soliqlardan to'lovlar esa mahalliy byudjetlarga yo'naltiriladi.

Umumdavlat soliqlari bo'yicha beriladigan soliq imtiyozlari, belgilanadigan soliq stavkalari, soliq bazalari, soliqqa tortish ob'ektlari, soliq to'lovchilarini aniqlash tartibi Soliq kodeksida aniq ko'rsatib o'tilgan. Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari Respublikaga bo'sunuvchi shaharlar, viloyatlar, tumanlar darajasiga mos keladigan soliqlar va yig'implarni o'rnatish, ularning stavkalarini o'zgartirish, soliq imtiyozlarini bekor qilish huquqiga ega.

O'z vaqtida to'lanmagan soliq to'lovlari va soliqlar bo'yicha o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmagan soliq to'lovchilar uchun qo'llaniladigan moliyaviy va ma'muriy jazo turlari Soliq Kodeksida belgilab berilgan.

Soliq Kodeksining alohida xususiyatlaridan biri bo'lib, maxsus soliq rejimlarining kiritilishi hisoblanadi. Bunga misol qilib, kichik tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortishda soddalashtirilgan tizimiga mos holda pasaytirilgan qat'iy 5%li stavkaning qo'llanilishini keltirishimiz mumkin.

Tojikiston Respublikasida 1999 yilning 1 yanvaridan Soliq Kodeksiga binoan yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash tartibi amalga kiritildi. Daromad solig'i va foyda solig'i bo'yicha deklaratsiyalar soliq organlariga hisobot davridan keyingi yilning 1 aprelogacha topshirilishi lozim. Tojikiston Respublikasi rezidentlari bo'lib hisoblangan jismoniy shaxslar ikki yoki undan ortiq daromad manbaiga ega bo'lsalar deklaratsiya taqdim qilishlari shart. Norezidentlar esa Tojikiston Respublikasidagi manbadan daromadga ega bo'lgan taqdirdagina deklaratsiya taqdim etadilar. Agar soliq to'lovchi daromad solig'i yoki foyda solig'i uchun deklaratsiyalarni taqdim etish muddatini uzaytirish haqida iltimosnoma bilan deklaratsiyalar taqdim etish muddati tugashidan oldin murojaat etsa va o'sha vaqt uchun belgilangan soliq summasini to'lagan bo'lsa deklaratsiyalarni taqdim etish muddati avtomatik ravishda ikki oyga uzaytiriladi. Biroq deklaratsiyalarni taqdim etish muddatining uzaytirilishi, soliqni to'lash muddatini o'zgartirmaydi.

Soliq Kodeksiga asosan har bir soliq to'lovchi yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lishidan qat'iy nazar, soliq organlariga va ularning vakolatli shaxslariga soliqlarni to'lash va o'tkazish bo'yicha soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligida belgilangan shartlarni bajarishi bo'yicha kerakli hujjatlar, ma'lumotlar va buxgalteriya hisobotini taqdim etishlari shart.

Soliq Kodeksida soliq to'lovchilarning amalga oshirilgan to'lovlarning to'g'riligi bo'yicha soliq organlarining tekshiruvlari to'rt yilda bir marta o'tkazilishi belgilangan. Shuning uchun ham soliq to'lovchilarning majburiyatlaridan biri soliqlarni to'lash va o'tkazish bo'yicha kerakli buxgalteriya hisobi va boshqa hujjatlarni 5 yildan kam bo'lmagan muddatga saqlashni ta'minlash kiradi. Soliq organlariga soliq muddati tugagandan keyin sakkiz yil mobaynida hisoblangan soliq summasini tekshirish huquqi berilgan. O'z navbatida soliq to'lovchi ham soliq muddati tugaganidan keyin 4 yil mobaynida ortiqcha to'langan soliq summasini qaytarib olish huquqiga ega.

Soliq to'lovchilarga belgilangan majburiyatlar bilan bir qatorda ularni huquqlari ham belgilab berilgan. Soliq qonunchiligida ko'rsatib o'tilgan soliqlar bo'yicha soliq to'lovchilar soliq imtiyozlaridan foydalanishi huquqiga ega.

Soliq to'lovchilarning boshqa huquqlaridan biri belgilangan soliqlarni to'lash muddatini uzaytirishdir. Soliq Kodeksiga asosan soliqlarni to'lash muddatini ko'pi bilan olti oygacha uzaytirishga ruhsat etiladi. Soliq muddatini ko'chirish soliq to'lovchilar uchun pulli hisoblanadi, ya'ni to'lanmagan soliq summasi uchun foizlar hisoblanadi.

Soliq qonunchiligida byudjet oldidagi qarzlarni to'lash tartibi quyidagicha o'rnatilgan: birinchi navbatda foizlarni to'lash, ikkinchidan jarima summalarini o'tkazishda oxirgisi soliq summalarini to'lash hisoblanadi.

MDH mamlakatlarining ko'pchiligi singari Tojikiston Respublikasi ham 2 pog'onali soliq tizimi amal qiladi. Birinchi pog'ona - umumdavlat soliqlari bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aktsizlar;
- ijtimoiy badallar;
- er solig'i;
- er ostidan foydalanganlik uchun soliq;
- korxonalarining mol-mulkiga soliq;
- transport egalari soliq;
- avtomobil yo'llaridan foydalanganlik uchun soliq;
- soddalashtirilgan soliq tizimi bo'yicha kichik tadbir-korlik sub'ektlaridan undiriladigan yagona soliq;
- sotishga soliq (paxta tolasi va alyuminiyga);
- bojxona boji va boshqa bojxona to'lovlari;
- davlat boji;
- Ikkinchi pog'ona – mahalliy soliqlar bo'lib, ular quyidagilardan iborat:
- chakana savdo solig'i;
- jismoniy shaxslarning ko'chmas mulkiga soliq;
- umumyo'lovchi transportini saqlash uchun soliq;

Qo'shilgan qiymat solig'i

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) - egri soliq bo'lib, Tojikiston Respublikasida tovarlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish jarayonida hamda Tojikiston Respublikasiga import qilingan tovarlarning bir qismini muayyan stavka va muddatda byudjetga yo'naltirishni bildiradi.

Tojikiston Respublikasida QQS 1992 yildan boshlab oldingi oborot va sotishga soliqning o'rniga joriy qilingan. Hozirgi kunda QQS Tojikiston Respublikasi byudjeti daromadlarining asosiy qismini shakllantirib, hamma soliq tushumlarining uchdan bir qismini tashkil qiladi.

QQS to'lovchilari bo'lib, soliq qonunchiligiga muvofiq mulkchilik shakli, ishchilar soni, faoliyat turidan qat'iy nazar barcha korxonalar va tashkilotlar hamda ishlab chiqarish va boshqa tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi barcha yuridik shaxslar hisoblanadi. Soliq to'lovchilari bo'lib, shuningdek tovar (ish, xizmat) realizatsiyasini amalga oshiruvchi yakka, oilaviy fermer xo'jaliklari, xususiy korxonalar, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar hamda Tojikiston hududida faoliyat yuritayotgan xalqaro birlashmalar va xorijiy yuridik shaxslar hisoblanadi.

Tojikiston Respublikasi hududida ishlab chiqarish yoki tijorat faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar va tashkilotlar QQSni to'lash majburiyatlarini xorijiy davlatlar qonunchiligiga mos holda tartibga solinadi.

Agar xorijiy kompaniya va tashkilotlarning filiallari, bo'limlari, doimiy vakillari tovar (ish, xizmat)larni mustaqil realizatsiya qilsa, bu holda ular soliq to'lovchilar bo'lib hisoblanadi.

QQS ob'ekti bo'lib, tovar (ish, xizmat)larning sotilishi bo'yicha oborot va soliqqa tortiladigan import hisoblanadi. Tovar (ish, xizmat)larning sotilishiga doir aylanmalar deganda, yuklab jo'natilgan mahsulot, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar tushuniladi.

Soliq solinadigan oborot miqdori sotiladigan tovar (ish, xizmat)lar qiymati asosida amaldagi narxlar va tariflardan kelib chiqib, ularga QQS solig'ini qo'shmasdan aniqlanadi. Aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan aylanmani aniqlashda aktsizlar summasi ham unga kiritiladi.

QQS stavkasi soliqqa tortiladigan oborot yoki soliqqa tortiladigan importning 20% ini tashkil etadi. Soliqqa tortiladigan oborot qiymati hisobot davrida qilingan operatsiyalarning umumiy qiymatini o'z ichiga oladi.

Soliq Kodeksiga muvofiq quyidagi yuklab jo'natilgan tovarlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar shuningdek, quyidagi turdagi import mahsulotlari QQSni to'lashdan ozod etiladi (tovar eksportidan tashqari):

a) ko'chmas mulklarni sotish va ijaraga berish (dam oluvchilar uchun uy-joy, mehmonxonalarni sotish yoki ijaraga berishdan tashqari);

b) moliyaviy xizmatlar ko'rsatish;

v) milliy yoki xorijiy valyutalar, shuningdek qimmatli qog'ozlar importi (numizmatik maqsadlardan tashqari);

g) respublika Milliy bankiga qo'yish uchun belgilanagn oltin importi;

d) diniy tashkilotlarning diniy va marosim xizmatlari;

e) meditsina xizmatlari;

j) maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga qarash xizmatlari, shuningdek, studiya, seksiyalarda, to'garaklarda o'smirlar va bolalar uchun ko'rsatilgan ta'lim xizmatlari;

z) o'quv muassasalarida maorif xizmatlari;

i) ijtimoiy yordam sifatida tovarlar yuklab jo'natish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish;

k) 50% idan kam bo'lmagan qismini nogironlar jamoasiga xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish va tovarlar etkazib berish xizmatlari;

l) korxonada davlat ro'yxatidan o'tgan kundan 1 yil vaqt mobaynida shu korxonaning Nizom fondini shakllantirish uchun Tojikiston Respublikasiga import qilingan ishlab chiqarish va texnik jihozlari (bu jihozlardan korxonada ta'sischi hujjatlariga mos holda tovar ishlab chiqarishda ishlar bajarishda va xizmatlar ko'rsatishda foydalanishi lozim bo'lgan hamda bu tovarlar aktsizosti tovarlar ro'yxatida qayd etilmagan bo'lsa).

QQS dan shuningdek eksport qilingan tovar (ish, xizmat)lar ham ozod etilgan.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish maqsadida Tojikiston Respublikasi soliq qonunchiligida alohida ijtimoiy ahamiyatga ega tovar (ish, xizmat)lar realizatsiyasi ham QQS dan ozod etilgan.

Bunday maqsadlarda shahar yo'lovchilarini tashish xizmatlari, ritual xizmatlar va boshqa shu kabi qator xizmatlar QQSni to'lashdan ozod etilgan.

QQS summasi soliq to'lovchilari tomonidan soliq stavkasini, soliq imtiyozini hisobga olgan holda soliq bazasidan kelib chiqib mustaqil aniqlaniladi. Bu vaqtda belgilangan summa hisobot davrining keyingi oyda 15 sanasidan kechiktirmay to'lanishi lozim.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilari bo'lib, mamlakatning rezident va norezident shaxslari hisoblanadi. Soliq rezidenti bo'lib, Tojikiston Respublikasi fuqorosi, fuqorosi bo'lmagan shaxslar va boshqa davlat fuqarolari Tojikiston Respublikasida kalendar yilining 182 kun va undan ortiq istiqomat qilganlar kiradi. Tojikiston Respublikasida kalendar yilining 182 kundan kam istiqomat qilganlar norezident hisoblanadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqning ob'ekti bo'lib, yalpi daromad hisoblanadi. Rezidentlar Tojikiston Respublikasida yoki uning chegarasidan tashqarisida olingan yalpi daromaddan soliq to'laydilar. Norezident soliq to'lovchilar uchun soliqqa tortiladigan ob'ekt bo'lib, Tojikiston Respublikasida olingan daromad hisoblanadi. Rezident va norezidentlarni dividend va foizlari agar oldin soliqqa tortilgan bo'lsa, bu summa yalpi daromad miqdoriga qo'shilmaydi. Soliq qonunchiligiga asosan rezidentlarning jami daromadlari yalpi daromadda inobatga olinadi. Xususiylar tadbirkorlarni ijtimoiy to'lovlari daromad solig'iga tortiladi (QQS to'lovchilaridan tashqari).

Tojikiston Respublikasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasi 30% ni tashkil etadi. Ushbu soliqni undirish jarayoni yil boshidan hisoblanib amalga oshiriladi.

Soliq qonunchiligiga asosan quyidagi jismoniy shaxslarni daromadlari daromad solig'iga tortilmaydi:

- Tojikiston Respublikasi fuqarosi hisoblanmagan shaxslarni rasmiy diplomatik va konsullik ishlaridan olingan daromadlari;

- norezident hisoblangan shaxslarni yollangan ishlaridan olingan daromad;
- ish haqi hisobida to'langan mulk qiymatidan tashqari, sovg'a tariqasida qoldirilgan mulk qiymati;
- yuridik shaxslardan olingan sovg'alar, xalqaro va respublika miqyosida o'tkazilgan konkurs yutuqlari (shu jumladan pul ko'rinishida);
- davlat nafaqasi, stipendiyalar, turli xil nafaqalar, shu jumladan bola tarbiyasi bo'yicha, vaqtinchalik ish faoliyatini yo'qotganligi tufayli berilgan nafaqalar;
- alimentlar;
- baxtsiz hodisa tufayli to'lanadigan moddiy yordam;
- Tojikiston Respublikasi hukumatining mukofoti;
- sug'urta to'lovlari;
- jismoniy shaxslarni moddiy mulklarini berish yoki sotishdan olgan daromadlari (agar oxirgi 5 yil mobaynida ushbu daromad asosiy manba hisoblangan bo'lsa);
- jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati maqsadidan tashqari ko'char mol-mulklarni sotishidan olingan daromad;
- Tojikiston Respublikasi davlat imtiyozlari summasi;
- sug'urta qilingan shaxslarning vafot etganlik tufayli to'lanadigan sug'urta to'lovlari;
- o'z tomorqalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirilgan va qayta ishlangan mahsulotlarini sotishdan olingan daromadlari;
- harbiy xizmatchilarning, ichki ishlar xizmatchilarining, milliy xavfsizlik xizmatchilarining eng kam ish haqining 50 barobaridan ko'p bo'lmagan miqdordagi oyliklari, maoshlari;
- qon topshiraganlik uchun olinadigan summa;
- Tojikiston Respublikasi davlat obligatsiyalari va lotoreyalaridan olingan yutuqlar.

Shuningdek, barcha jismoniy shaxslar uchun eng kam ish haqi, miqdorida belgilangan soliqqa tortilmaydigan minimum mavjud.

Tojikiston Respublikasi soliq qonunchiligida jismoniy shaxslarning daromadiga qo'llaniladigan chegirmalar ham mavjud bo'lib, ular asosan quyidagi jismoniy shaxslarga qo'llaniladi:

- Sobiq Sovet Ittifoqi va Tojikiston Respublikasi qahramonlari, «Shuhrat» ordeni bilan taqdirlanganlar, I va II-guruh nogironlari;
- Ulug' Vatan urushi qatnashchilari va boshqa harbiy operatsiyalar tufayli shularga tenglashtirilgan shaxslar;
- - atom ob'ektlarida avariya natijasida nurlangan shaxslar.

Yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i

Tojikiston Respublikasida yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'ini undirish mexanizmi MDH mamlakatlarida qo'llaniladigan undirish mexanizmiga mos keladi. Mamlakat soliq tizimida ushbu soliqning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. Soliq to'lovchilar sifatida rezident va norezidentlar e'tirof etiladi.

Bugungi kunda yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'ining asosiy stavkasi-30% qilib belgilangan. Doimiy muassasasi bilan bog'liq bo'lmagan norezidentlardan uchun daromad solig'ining quyidagi stavkalari amal qiladi:

- foizlar va dividendlar ko'rinishidagi daromadlardan -12%;
- sug'urta to'lovlari bo'yicha daromadlardan - 4% (xalqaro tashish va aloqalarni amalga oshirish paytida transport hamda aloqa xizmatlari uchun);
- royalti shaklidagi daromadlardan - 20%.

Tojikistonda soliqqa tortiladigan bazani aniqlash tartibi Qozog'iston va Qirg'iziston mamlakatlarida qabul qilingan tartibga qisman mos keladi. Soliqqa tortiladigan ob'ekt sifatida yalpi daromad va chegirmalar o'rtasidagi farq inobatga olinadi. Boshqa mamlakatlardan farqli xususiyati bu norezident - korxonalarining soliqqa tortiladigan ob'ektini aniqlash tartibi hisoblanadi. Bunday

korxonalarining Tojikiston Respublikasidagi doimiy muassasasidan olgan foydasi umumiy qabul qilingan tartib asosida soliqqa tortiladi, doimiy muassasasi bilan bog'liq bo'lmagan foyda bo'yicha esa soliqqa tortiladigan ob'ekt sifatida chegirmalar qo'llanilmagan to'lov manbaidagi daromad hisoblanadi.

Bunda mamlakatdagi doimiy muassasa deganda, quyidagilar inobatga olinadi:

- asosiy faoliyat turi;
- tadbirkorlik faoliyati;
- kelishilgan davlat hududida faoliyatning amalga oshirilishi.

Doimiy muassasa maqomiga quyidagilar kiritilmaydi: ilmiy tadqiqot, saqlash, reklama, taqdimot yoki tovarlarni etkazib berish maqsadida foydalanilgan inshootlar.

Tojikiston Respublikasida quyidagi yuridik shaxslar daromad solig'idan ozod etilgan:

- diniy tashkilotlar;
- byudjet tashkilotlari;
- xayriya tashkilotlari;
- hukumatlararo va davlatlararo tashkilotlar (tadbir-korlik faoliyatidan olingan daromadlaridan tashqari);

- tashkilotlarning a'zolik badallari;
- Respublika Milliy banki va uning muassasalari;
- nogironlar, ko'rlar va karlar jamiyatlarining korxonalarini.

Yuridik shaxslarning daromad solig'i har oyning 15-sanasiga qadar to'lanishi lozim.

Aktsiz solig'i

Aktsiz solig'i egri soliq bo'lib, aktsizosti tovarlari realizatsiyasi bahosiga kiritiladi. Aktsiz solig'iga nafaqat Tojikiston Respublikasida ishlab chiqarilgan va realizatsiya qilingan aktsizosti mahsulotlari, balki respublika hududiga kiritilgan aktsizosti tovarlari ham tortiladi.

Aktsizosti tovarlar ro'yxati Tojikiston Respublikasi hukumati tomonidan tasdiqlanadi va bu guruhga spirtli va tamaki mahsulotlari, zargarlik buyumlari, yoqilg'i mahsulotlari, engil avtomobillar, zargarlik buyumlari, avtomobil shinalari kiradi.

Aktsiz solig'ining to'lovchilari bo'lib, Tojikiston Respublikasi hududida aktsizosti tovarlarini ishlab chiqaradigan va import qiladigan barcha yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Tojikiston Respublikasi hududida buyurtmachi tomonidan etkazib berilgan xom ashyodan ishlab chiqarilgan aktsizosti mahsulotining soliq to'lovchisi bo'lib, ushbu mahsulotni ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi. Soliqqa tortiladigan ob'ekt bo'lib, Tojikiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan aktsizosti mahsulotlari va bojxona qonunchiligiga mos holda Respublika hududiga import qilingan aktsizosti mahsulotlari hisoblanadi.

Aktsizosti tovarlari mamlakat hududi bo'yicha amal qiluvchi yagona stavkalar amal qiladi va bunda «Aktsiz solig'i to'g'risida»gi Qonunga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar inobatga olinadi.

Bugungi kunda aktsiz solig'i bo'yicha quyidagi stavkalar amal qiladi:

4.2.1-jadval

Tojikiston Respublikasida amaldagi aktsiz solig'i stavkalari:

Mahsulot nomi	Soliq stavkasi
Pivo	0,07 doll. 1 litr uchun
Vino	0,15 doll. 1 litr uchun
Shampan vinosi	0,4 doll. 1 litr uchun
Etil spirti	2,0 doll. 1 litr uchun
Aroq	1,0 doll. 1 litr uchun
Konyak	1,2 doll. 1 litr uchun
Sigaretalar	0,5 doll. 1000 dona uchun
Boshqa tamaki mahsulotlari	0,09 doll. 1 kg. uchun
Neft va neft mahsulotlari	20,0 doll. 1 t. uchun
Avtomobil benzini	0,05 doll. 1 litr uchun
Dizel yoqilg'isi	6,6 doll. 1 t. uchun
Pnevmatik rezina shinalari	qiymatining 10% i
Engil avtomobillar	qiymatining 10% i

Tojikiston hududida ishlab chiqariladigan aktsizosti tovarlari bo'yicha soliqqa tortiladigan aylanmalar summasi ulgurji bozor narxidan kam bo'lmagan miqdorda soliq to'lovchining olgan yoki olishi kerak bo'lgan mukofoti asosida QQS va aktsiz summasini hisobga olmagan holda aniqlanadi.

Aktsizosti tovarlar chakana narxlarda sotilganda ham soliqqa tortiladigan aylanma ulgurji bozor bahosida (QQS va aktsizni hisobga olmagan holda) aniqlanadi. Import tovarlari bo'yicha soliqqa tortiladigan aylanma summasi QQS va aktsiz solig'ini hisobga olinmagan holda, bojxona qonunchiligiga asosan aniqlangan aktsizosti tovarlar qiymatiga (ulgurji bozor narxidan kam bo'lmagan miqdorda) tovarlarni import qilishda to'langan soliq va boj summaları qo'shilgan holda aniqlanadi. Bu jarayonda qadoqlash narxi (qaytarib beriladigan qadoqlash buyumlaridan tashqari) - soliqqa tortilmaydigan aylanma summasini aniqlashda hisobga olinadi.

Aktsizosti tovarlari eksporti nolli stavka asosida soliqqa tortiladi.

Quyidagilar aktsiz solig'iga tortiladigan ob'ektlarga kiritilmaydi:

- jismoniy shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan va o'z shaxsiy ehtiyojlari uchun foydalanadigan spirtli ichimliklar;
- jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy ehtiyojlari uchun import qilingan 1 litr alkogol ichimligi va 1 blok sigareta (200 dona);
- Tojikiston Respublikasi hududi orqali olib o'tiladigan va vaqtinchalik import qilinadigan mahsulotlari;
- garovning ta'minlanishini kafolatlaydigan tovarlar mamlakatga olib kirilganda (bojxona qonunchiligida ko'rib chiqilgan tartibda);
- ijtimoiy yordam tariqasida import qilingan aktsizosti mahsulotlari (spirtli va tamaki mahsulotlaridan tashqari);
- Tojikiston Respublikasidan tovarlar (ish, xizmatlar) eksporti munosabatlari bilan bog'liq davlatlardan import qilingan mahsulotlar.

Aktsizosti tovarlarini (xom ashyo materiallarini) sotib oluvchi va bu tovarlar (xom ashyo materiallar)dan boshqa aktsizosti mahsuloti ishlab chiqarish uchun foydalanuvchilar yoki yaratilgan mahsulotni eksport qiluvchilar aktsizosti tovar (xom-ashyo material)ni olish vaqtida to'langan aktsiz solig'i summasini hisobga olish huquqiga ega.

Aktsizosti mahsulotlarini ishlab chiqarish hollarida aktsiz solig'i quyidagi muddatlarda byudjetga to'lanishi lozim:

- oyning birinchi dekadasi uchun oyning 13-sanasidan kechiktirmay;

- o'yning qolgan qismi uchun kelgusi o'yning 3-sanasidan kechiktirmasdan to'lanadi.

Agar tovar kelajakda reeksport maqsadlari uchun import qilinsa, aktsiz solig'i tovarlarni import qilish vaqtida to'lanadi va keyinchalik bu summa yozma ariza taqdim etilgandan keyin 45 kun mobaynida bojxona organlari tomonidan qaytarib beriladi.

Er osti boyliklaridan foydalanilganlik uchun soliq

Er osti boyliklaridan foydalanilganlik soliq Tojikiston Respublikasi Soliq Kodeksida belgilab berilgan va soliq tizimiga muvofiq yuridik va jismoniy shaxlar bilan maxsus davlat organi o'rtasida kelishilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Er osti boyliklaridan foydalanuvchilarni soliqqa tortish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi: birinchi holatga muvofiq er osti boyliklaridan foydalanuvchilar Soliq Kodeksida belgilab berilgan barcha turdagi soliqlarni va maxsus to'lovlarni to'laydilar.

Ikkinchi holatga muvofiq sarflangan mineral rudalar hajmiga qarab soliqqa tortiladilar. Undan tashqari ular yuridik shaxslarning daromad solig'ini, qo'shilgan qiymat solig'ini va boshqa Tojikiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan to'lovlarni to'laydilar.

Er osti boyliklaridan foydalanilganlik uchun soliq Tojikiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra respublika va mahalliy byudjetlarga yo'naltiriladi. Er osti boyliklardan foydalanish maqsadida shartnoma tuzilganda u albatta soliq ekspertizasidan o'tkaziladi va shu shartnomaning haqiqiylik muddati belgilandi.

Er osti boyliklaridan foydalanuvchilarning maxsus to'lovlariga bonuslar, royalti va yuqori daromadga belgilangan soliq kiradi. Soliqqa tortiladigan daromadni aniqlashda barcha turdagi bonus va royaltilar chegirib tashlanadi. (4% dan 30% gacha tabaqalashtirilgan).

Ro'yxatga olish bonusi er osti boyliklaridan foydalanuvchilarning bir marta to'lanidigan qat'iy to'lovi bo'lib, shartnoma tuzilishi vaqtida to'lanadi. Bonus miqdori soliq to'lovchi foydalanayotgan konning iqtisodiy qiymatidan kelib chiqib, shartnomada belgilanadi. Bonusni to'lash muddati shartnoma tuzilgandan boshlab, 30 kundan kechiktirmay to'lanishi lozim.

Yangi konlar ochish va qazib olish bonusi qat'iy to'lov hisoblanadi va u yangi konlar ochilganda yoki shartnomada belgilangan miqdor qazib olinganda to'lanadi. To'lash muddatlari shartnomada ko'rsatiladi. Tojikiston Respublikasida foydalanilgan har bir foydali qazilma uchun royalti to'lanadi. Soliq Kodeksida ko'rsatilishicha, bu royalti pul yoki natura shaklida bo'lishi mumkin. Stavkasi shartnomada ko'rsatiladi. Royalti bo'yicha hisob-kitoblar hisobot oyidan keyingi o'yning 10 kunigacha soliq to'lovchi ro'yxatdan o'tgan soliq inspeksiyasiga topshirilishi kerak. Royaltini to'lash muddati keyingi o'yning 15 kunigacha to'lanishi kerak.

Yuqori daromadga soliqning ob'ekti bo'lib, er osti boyliklaridan foydalanuvchilarning sof foydasi hisoblanadi. Bu soliqning hisob-kitoblari hisobot yilidan keyingi yilning 1 aprelegacha taqdim etiladi. To'lash muddati 10 aprelegacha qilib belgilangan.

Soddalashtirilgan soliq tizimi

Soddalashtirilgan soliq tizim sub'ektlari bo'lib, QQSni to'lamaydigan kichik biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar hisoblanadi. Bu tizim asosida kredit muassasalari, sug'urta tashkilotlari, investitsiya fondlari va qimmatli qog'ozlar bozorining maxsus ishtirokchilari soliqqa tortilmaydilar.

Soliq ob'ekti bo'lib, mahsulot (ish, xizmatlar)ni sotishdan tushgan yalpi tushum hisoblanadi. Yagona soliq to'lovchi korxonalar, yuridik shaxslarning daromad solig'ini, korxonalar mol-mulk solig'ini, er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni va avtomobil yo'llaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to'lamaydilar.

Yagona soliqni to'lovchi korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyati bilan shug'ullansalar, barcha soliqlar va bojlarni umumiy tartib asosida to'laydilar.

Yagona soliq to'lovchilari uchun buxgalteriya hisob-kitobini yuritish soddalashtirgan tizimning kassa asosida amalga oshiriladi.

Soddalashtirilgan tizim asosida kichik biznes sub'ektlari uchun soliq stavkasi 5% qilib belgilangan. Soddalashtirilgan tizim asosida soliqqa tortiladigan korxonalar uchun soliq davri qilib

1-chorak qilib belgilangan. Soliq to'lovchilar soliq idoralariga kelgusi oyning 10 sanasigacha to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi bo'yicha deklaratsiyalarni taqdim etishi va belgilangan soliqni to'lashlari lozim.

Sotishga soliq

Sotishga soliq (paxta xom ashyosi va alyuminiyni) cheklangan doirada qo'llaniladi. Bu soliqni to'lovchilari bo'lib, ichki va tashqi bozorlarda paxta xom ashyosi va alyuminiy mahsulotlarini sotuvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Bu mahsulotlar Tojikiston Respublikasi uchun muhim strategik eksport xom ashyosi bo'lganligi uchun joriy qilingan va davlat byudjetida ushbu soliqning o'rni katta.

4.3. Mahalliy soliqlarning tarkibi va ahamiyati

Tojikiston Respublikasida tashkilotlar mol-mulkiga soliq mulkning o'rtacha balans qoldiq qiymatiga nisbatan 0,5% , hisobot yilining boshi va oxirida shu mulkning balans qiymatlarining o'rtacha arifmetigi sifatida hisoblab undiriladi. To'lovchilar tarkibiga, o'z mulki bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek, o'z hisob raqamiga ega bo'lgan filiallar va boshqa ayrim bo'linmalar va chet el yuridik shaxslari kiradi.

Soliqqa tortiladigan oborot bo'lib, tashkilot balansidagi mulk qiymati, nomoddiy aktivlar va zaxiralar hisoblanadi.

Hisobot yili uchun soliqni keyingi yilning 1-aprelegacha to'lash mumkin. Mulk solig'i summasi o'rniga shu davrda hisoblangan daromad solig'i hisoblanishiga ruhsat berilgan.

Tojikistonda **er solig'i** quyidagilarga nisbatan o'rganiladi:

- kadastr bahosi;
- joylashgan joyiga qarab;
- erning sifatiga qarab;
- uning ishlatilish maqsadi;
- ekologik xususiyatlar.

Er solig'ining to'lovchilari bo'lib, er egalari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Er solig'ining oborotini aniqlashdagi o'ziga xos xususiyati bo'lib erlarning ikkiga ajratilishi hisoblanadi, ya'ni:

- shahar va shahar tipidagi posyolka erlari (kv. metrdan-3 somoni);
- qolgan erlar (kv. metr - 1,5 somoni).

Soliqqa tortiladigan maydonga qurilishga jalb qilingan erlar, inshootlar va ularni saqlash uchun erlar, shuningdek, sanitar himoya qilish zonalari, texnikaviy va boshqa zonalar kiradi. Tojikistonda er solig'i bo'yicha imtiyozlarga qo'riqxonalar, botanika va zoologiya bog'lari, aholi turar joylaridagi umumfoydalanuvdagi erlar, byudjet tashkilotlari foydalanayotgan erlar, tabiatni, tarixiy obida va yodgorliklarni hamda madaniyat yodgorliklarini qo'riqlash organlari ega bo'ladi.

Erdan foydalanuvchilar hisobot yilining 1-martidan kechikmay soliq organlariga erlari uchun soliq hisobini topshiradilar. Soliq summasi to'lovchi tomonidan teng ulushlarda 15 mart, 15 iyun, 15 sentyabr va 15 dekabrgacha to'lanishi kerak.

Avtomobil egalari soliqni – transport vositalariga ega bo'lgan barcha yuridik va jismoniy shaxslari, jumladan, chet el yuridik va jismoniy shaxslar to'laydilar.

Tojikiston Respublikasida registratsiyadan o'tgan barcha transport vositalari soliqqa tortiladi.

Soliqqa tortiladigan oborot	Soliqqa tortilmaydigan daromad (min)ga nisbatan (%da)
Mototsikl va motorollerlar	1,0
Engil avtomobillar	2,0
Avtobuslar (12 joygacha)	2,5
Avtobuslar (13-30 joygacha)	3,0
Avtobuslar (30 joy va undan yuqori)	3,5
10 tonna yuk ko'taruvchi mashinalar	4,0
10-20 tonna yuk ko'taruvchi mashinalar	4,5
20-40 tonna yuk ko'taruvchi mashinalar	5,0
40 tonnadan yuqori yuk ko'taruvchi mashinalar	5,5

Soliqni to'lash muddatlari registratsiya, qayta registratsiya va yillik texnik muddatlariga to'g'ri keladi. Soliqni to'laganlik haqidagi ma'lumotnoma ko'rsatilmasa registratsiya va texnik ko'rik o'tkazilmaydi. Agar oldingi avto egasi yillik soliqni to'lagan bo'lsa, qayta registratsiya qilishda avtotransportdan soliq olinmaydi.

Quyidagilar soliqdan ozod etiladi:

- harbiy mashina va mexanizmlar;
- dvigatelli g'alla o'ruvchi va maxsus kombaynlar;
- avtotransport tashkilotlari tomonidan shaharlarda passajir tashish maqsadida ishlatiladigan avtobus va trolleybuslar;
- nogironlarga tegishli motoaravachalar va qo'l bilan boshqariluvchi avtomobillar.

Avtomobil yo'llaridan foydalanganlik uchun soliqning to'lovchilari bo'lib, QQSni to'lovchi o'z faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi chet el tashkilotlari va firmalar, rezident tashkilotlar, yuridik shaxslar hisoblanadi.

Soliqqa tortiladigan ob'ekt bo'lib QQSiga tortiladigan («0» foizli stavka buyicha ham) etkazib berilgan tovar (ish, xizmat)lar hisoblanadi. QQS dan ozod bo'lgan tovarlar soliqqa tortish ob'ekti bo'lib hisoblanmaydi. QQSga tortiluvchi tovarlar import qilinayotganda, avtomobil yo'llaridan foydalanish solig'iga tortilmaydi.

Chakana savdodan soliq. Tojikiston qonunchiligiga mos kelgan holda tashkil qilingan yuridik shaxslar, kompaniyalar va ularning filiallari hamda vakolatxonalarini yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadi.

Ushbu soliq bo'yicha ob'ekt bo'lib, shahar hududida chakana savdoda sotilgan tovar qiymati bo'lib hisoblanadi. Soliq to'lovchi tomonidan realizatsiya qilingan tovar qiymatidan erkin bozor narxi summasi chegirilgandan so'ng soliqqa tortiladigan baza aniqlanadi. Erkin bozor narxi o'z ichiga QQS va aktsizlarni oladi. Ushbu soliqning eng yuqori stavkasi 5% ni tashkil etadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i Soliq Kodeksi asosida o'rnatilgan. Bu soliqni to'lovchilari bo'lib, Tojikiston fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, ya'ni Tojikiston Respublikasida o'z xususiy mulkiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar (yashash joyi, kvartira, dacha, garaj va boshqa binolar ko'chmas mulk tarkibiga kiritilganlar).

Soliq bazasi bo'lib, o'sha ob'ektning bozor qiymati, inventarizatsiya qiymati, sug'urta qiymati yoki ob'ektning qiymati hisoblanadi.

Transport solig'i stavkasi mahalliy hokimiyat tomonidan Soliq Kodeksiga asosan soliq bazasiga nisbatan 2% ijtimoiy to'lov sifatida o'rnatiladi.

Ijtimoiy to'lov Tojikistonning ijtimoiy himoya fondiga majburiy to'lanadi.

Tojikistonda ijtimoiy to'lovning to'lovchilari bo'lib, yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Bu soliqni to'lashdan quyidagi shaxslar ozod etiladi:

- diplomatik va konsullik vakolatxonalarda ishlovchi hamda Tojikiston fuqarosi bo'lmagan shaxslar;
- vaqtincha mehnat qobiliyatiga ega bo'lmaganlar, ya'ni ijtimoiy yordam puli oluvchi aholi.

Soliq organlari strukturasi

Tojikiston Respublikasi soliq organi Tojikiston Hukumati qoshidagi Markaziy Soliq Qo'mitasi apparatida, viloyat Soliq Qo'mitasi, tuman, shahar hamda shahar tumanlari soliq inspektsiyalardan tashkil topgan.

Soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik.

Soliq Kodeksida soliq qonunbuzarligi bo'yicha etarli darajada tushunchalar berilgan. Ushbu qonunbuzarlikka oid Qodeksda javobgarlik choralari ko'rsatib o'tilgan.

Tojikiston soliq qonunchiligida soliq qonunbuzarligi uchun javobgarlik tamoyillari ko'rsatilgan bo'lib, ular quyidagilar:

- soliq qonunbuzarliklari uchun choralar Soliq Qodeksida ko'rsatib o'tilishi lozim;
- soliq to'lovchining qilgan qonunbuzarligi uchun soliq javobgarligi 1 martadan ortiq takrorlanmaydi.

Soliq to'lovchilari soliq qonunbuzarligi uchun javobgarlikka tortilganda to'lash majburiyatidan ozod etilmaydilar.

Agar soliq to'lovchi sud tomonidan aybdor hisoblanmasa soliq organlari tomonidan ham aybdor hisoblanmaydi.

Soliq Kodeksiga asosan soliq to'lovchining ikki xil qonunbuzarlik xatolari ko'rsatilishi mumkin:

- a) qonunbuzarlik asosida harakat qilishi;
- b) ehtiyotsizlik bilan qilgan xatoligi;

Soliq Kodeksiga asosan soliq to'lovchi qilgan qonunbuzarligi bo'yicha soliq organlari tomonidan ma'lum vaqt davomida, ya'ni 4 yil mobaynida sudga murojaat qilishi mumkin. Agar 4 yildan oshgan bo'lsa javobgarlikka tortilmaydi.

Soliq kodeksiga asosan o'z vaqtida to'lamagan soliq to'lovlari uchun soliq to'lovchi kechiktirilgan kunlar uchun foizlar to'lashga majbur. Agar soliq ortiqcha to'langan bo'lsa, soliq to'lovchilar soliq summasini qaytarib olishga haqlidir, bu jarayon 7 kun ichida amalga oshirilishi lozim.

Tojikiston Soliq Qo'mitasi tomonidan har bir kvartal uchun foiz stavkasi o'rnatilib, viloyat soliq inspektsiyalariga etkaziladi. Kechiktirganlik uchun foiz mablag'i soliq to'lovchining bankdagi hisob-kitob schyotidan undiriladi.

Soliq to'lovchi tomonidan soliq deklaratsiyasi taqdim etilmasa 5% miqdorda kechiktirilgan har bir oy uchun ustama belgilanadi. Jarima summasi eng kam daromadning 25% idan oshmasligi kerak.

O'z-o'zini tekshirish va takrorlash uchun savollar:

1. Tojikiston Respublikasi soliq tizimi necha pog'onali qilib belgilangan?
2. Tojikiston Respublikasi Soliq Kodeksi qachon qabul qilingan?
3. Umumdavlat soliqlarning byudjetdagi o'rnini tahlil qiling.
4. Umumdavlat soliqlari tarkibiga qaysi soliqlar kiradi? Mahalliy soliqlarga-chi?
5. QQSni undirish mexanizmi qaysi tartib asosida belgilangan?
6. Qaysi turdagi import mahsulotlari QQSdan ozod etiladi?
7. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash tartibini aytib bering.
8. Yuridik shaxslarning daromad solig'ini byudjetdagi o'rnini tahlil qiling.
9. Tojikiston Respublikasida amaldagi aktsiz solig'i stavkalari qaysi tartibda belgilangan?
10. Er osti boyliklaridan foydalanilganlik uchun soliqning mohiyati nimadan iborat?
11. Mahalliy soliqlar ichida asosiy salmoqli o'rinni qaysi soliq turi egallaydi?
12. Tojikiston Respublikasi soliq boshqaruvchi organlariga kimlar kiradi?

V-BOB. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining tuzilishi

5.1. O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan soliqlar va soliqsiz to'lovlariga umumiy tavsif

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 5-8 moddalariga binoan soliq tizimi quyidagi tarkibga ega bo'lib, unga keyingi o'zgartirishlar ham kiritilgan.

O'zbekistonda soliqlar tizimi tarkibi

Umumdavlat soliqlari	Mahalliy soliqlar va yig'implar
1. Yuridik shaxslar daromadiga (foydasiga) soliq.	1. Mol-mulk solig'i.
2. Jismoniy shaxslar daromadiga soliq.	2. Er solig'i.
3. Qo'shilgan qiymat solig'i.	3. Yagona soliq.
4. Aktsiz solig'i.	4. Infratuzilmani rivojlantirish solig'i.
5. Er osti boyliklaridan foydalanilganlik uchun soliq.	5. Jismoniy shaxslarning transport yoqilg'isi uchun iste'mol solig'i.
6. Ekologiya solig'i.	6. Jismoniy shaxslar chetdan tovarlar olib kelganligi uchun yagona bojxona to'lovi.
7. Suv resurslaridan foydalan-ganlik uchun soliq.	7. Savdo huquqi yig'imi, shu jumladan alohida tovarlar turlarini sotish uchun litsenziya yig'imi.
8. Savdo va umumiy ovqatlanish tashkilotlaridan yalpi daromad solig'i.	8. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik hamda jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish yig'imi.
9. Bojxona boji.	9. Boshqa to'lovlar.
10. Davlat boji.	
11. Qimmatli qog'ozlarni ro'yxatdan o'tkazish yig'imi.	
12. Boshqa daromadlar.	

Soliq tizimini tashkil etuvchi soliq va yig'implar bir-biri bilan bog'liq bo'lib, oqibat natijasida ular huquqiy va jismoniy shaxslarning pul daromadlaridan olinadi. Demak, soliq va yig'implarning jami yig'indisi summasi soliq og'irligi tushunchasini keltirib chiqaradi.

O'zbekistonda soliqlarni ob'ekti va iqtisodiy mohiyati bo'yicha guruhlash. Soliqlarni guruhlash – bu iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta'sirlarni o'rganishning ilmiy va amaliy uslubi hisoblanadi.

Soliqlar soliqqa tortish ob'ektiga qarab to'rt guruhga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar
2. Daromaddan olinadigan soliqlar
3. Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar
4. Er maydoniga qarab olinadigan soliqlar.

Oborotdan olinadigan soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, bojxona va er osti boyliklari qiymatidan olinadigan soliqlar kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligimiz bo'yicha ilgari dek mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki mahsulotlarni yuklab yuborgan qiymat bilan o'lchanadi (QQSda). Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi.

Daromaddan olinadigan soliqlarga yuridik shaxslarning daromadiga (foydasiga), jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, savdo tashkilotlarining yalpi daromadidan soliqlari kiradi. Bu guruh soliqlarga infrastrukturani rivojlantirish solig'i ham kiradi.

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga mol-mulk solig'i, ekologiya solig'i va boshqalar kiradi.

Er maydonlaridan olinadigan soliqlarga qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarning yagona er solig'i va yuridik (noqishloq xo'jalik) va jismoniy shaaxslarning er soliqlari kiradi. Xarajatlardan olinadigan soliqlarga esa ekologiya solig'i kiradi.

Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar egri va to'g'ri soliqlarga yoki bevosita va bilvosita soliqlarga bo'linadi. To'g'ri soliqlarni to'g'ridan to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqni huquqiy to'lovchisi ham, haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladi. To'g'ri soliq yukini boshqalarga ortish holati bu erda bo'lmaydi. Bu soliqlarga hamma daromaddan to'lanadigan va barcha mulk soliqlari kiradi.

To'g'ri soliqlardan to'g'ridan-to'g'ri daromaddan soliq to'langanligi uchun soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko'p qismini ularga qoldirib, investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratib, bozor iqtisodiyotini rivojlantiradi. Bu soliqlarning stavkalari ko'paytirilsa, biznes imkoniyatlari kamaya borib, iqtisodiy rivojlanishni susaytiradi. Demak bu guruh soliqlarning stavkalari to'g'ridan-to'g'ri bozor iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'langandir.

Egri soliqlarni huquqiy to'lovchilari mahsulot (ish, xizmatni) yuklab yuboruvchilardir (xizmat ko'rsatuvchilardir). Lekin soliq og'irligini haqiqatdan ham byudjetga to'lovchilari tovar (ish, xizmat) ni iste'mol qiluvchilardir, ya'ni haqiqiy soliq to'lovchilar bu erda yashiringan. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga ustama ravishda qo'yiladi.

Bu soliqlarning ijobiy tomoni Respublikada ishlab chiqarilgan tovarlarni chetga chiqib ketishini chegaralaydi, mamlakat ichida tovarlar ko'p bo'lishiga yordam beradi. Egri soliqlar orqali tovarlar qiymati oshirilmasa, bozorlarda ularning taqchilligi ortadi. Egri soliqlar stavkasining asosli ravishda oshirilishi korxonalar faoliyatining moliyaviy yakuniga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etmaydi, ya'ni investitsion faoliyatini qisqartirmaydi. Ammo soliq stavkasi tahlil qilinmasdan oshirib yuborilsa, korxonalar sotish qiyinchiligiga uchrab foyda olishni ham, byudjetga to'lovlarni ham kamaytirishi mumkin.

Bu soliqlarning yana bir tomoni muomaladagi ortiqcha pul massasini kamaytirib, inqirozni jilovlab boradi. Biroq, bu soliqlar mehnat bilan band bo'lgan aholining real daromadini pasaytiradi. Korxonalarda to'g'ri soliqlar stavkasini kamaytirish hisobiga berilgan imkoniyat ko'proq mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirib, tovarlar assortimentining oshishini ta'minlashi kerak.

Jahon soliq amaliyotida to'g'ri va egri soliqlar nisbatiga qarab u yoki bu mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi yoki iqtisodiy qiyinchiliklarni borligini tahlil qilib berish mumkin. Masalan. AQSh da to'g'ri soliqlar salmog'ining byudjet daromadida 90 foizga yaqin bo'lishi bu erda rivojlangan bozor iqtisodiyoti mavjudligidan darak beradi.

Egri soliqlar tarkibiga QQS, aktsiz solig'i, bojxona boji, er osti boyliklaridan foydalanish soliqlari kiradi. Yuqorida aytib o'tilganidek, to'g'ri va egri soliqlar yagona soliq tizimini tashkil etib bir-biri bilan o'zaro bog'langan. Umumiy soliq summasi o'zgarmagan holda birining stavkasini kamaytirish ikkinchisini stavkasini oshirishni talab etadi.

Soliqlarning umumdavlat (respublika) va mahalliy soliqlarga bo'linishi hukumat idoralarining respublika hukumati va mahalliy hukumatlarga bo'linishi asosida kelib chiqadi. Tar bir hokimiyat idoralari o'zlarining bajaradigan muhim vazifalaridan kelib chiqib, o'z byudjetiga va uni ta'minlaydigan soliqlarga ega bo'lishi kerak. Respublika hukumati umumdavlat miqyosida katta vazifalarni mudofaa, xavfsizlikni saqlash, tartib-intizom infrastrukturasini yaratish, mehnatkashlarga ijtimoiy himoyasini tashkil etish va boshqa bir qator yirik vazifalarni bajaradi. Shuning uchun uning byudjeti ham soliqlari ham salmoqli bo'lishi shart. QQS, aktsiz solig'i, yuridik shaxslarning daromadi (foydasi)dan, fuqarolar daromadidan olingan soliqlar respublika byudjetiga tushadi. Umumdavlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika byudjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy byudjetlarni boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushishi mumkin. Bordi-yu, ajratma etmasa subvensiya yoki subsidiya beriladi. Agar kelgusi yil mahalliy byudjetlarning o'z manbalari (soliqlari) ko'payib qolsa, respublika soliqlardan ajratma berishning hojati qolmaydi. Respublika va mahalliy soliqlar yagona mohiyatga ega bo'lib, byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlardir.

Mahalliy soliqlar hukumatlar bajaradigan vazifalariga qarab belgilanib, ularga doimiy va to'liq biriktirib beriladi. Mahalliy hukumatlar asosan mehnatkashlarga yaqin bo'lganligidan ularga ijtimoiy masalalarni maktab, sog'liqni saqlash, madaniyat, maorif, shahar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin bu soliqlar va yig'imlar ularning byudjet xarajatlarining 30-40 foizini qoplaydi, xolos. Keyingi vaqtlarda mahalliy byudjetlar daromadlari salmog'ini 50-60 foizga etkazish kabi hukumat qarorlari mavjud. Mahalliy byudjetlar daromadlarini ko'paytirish eng dolzarb masalalardan biridir. Faqat o'z daromad manbaiga to'liq ega bo'lgan mahalliy hukumatlar o'z faoliyatlarini to'liq amalga oshirishlari mumkin. Aks holda, har xil moliyaviy kamchiliklarga yo'l qo'yish ehtimoli bor. Mahalliy soliqlarning muhim xususiyati shundaki, ular faqat shu hududning byudjetiga tushadi. Boshqa byudjetlarga ajratmalar berilmaydi.

Mahalliy byudjetlarning soliq va yig'imlari kam bo'lganligidan bu byudjetlarning daromadlar va xarajatlarini barqarorlashtirish (balanslashtirish) ancha murakkabdir. Bu masalani echishda ilgari ko'rsatganimizdek hududdan tushadigan soliqlardan ajratmalar beriladi. (masalan, QQS, daromad solig'i va boshqalar). Amaliyotda shu soliqlardan mahalliy byudjetlarga ular byudjetini barqarorlashtirish uchun 100 foizgacha ajratma bermasdan turib subventsiya (maqsadli yordam) berish hollari uchraydi. Vaholanki, mahalliy hukumatlarni o'z hududlaridan tushadigan soliqni undirishga qiziqtirish uchun 100 foizgacha ajratmalar berish maqsadga muvofiqdir.

Subventsiya yoki subsidiya uslublari esa mahalliy hukumatlarning respublika hukumatiga murojaat etish lozimligini bildirib, ularni o'z hududlaridagi soliq va yig'imlar to'liq undirilishini qiziqtirmaydi, ulardagi boqi beg'amlik fazilatini kuchaytiradi. Mahalliy hukumatlar o'z xohishlaricha soliq va yig'imlar kiritish huquqiga ega emas. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida ko'rsatilgan soliqning o'z hududlarida qo'llash yoki qo'llamaslik huquqi bor. Undan tashqari mahalliy soliqlar (mol-mulk va er solig'idan tashqari) va yig'imlardan byudjetga tushgan summa atrofida soliq to'lovchilarga imtiyozlar berish huquqiga ega. Mahalliy soliqlar va yig'imlarning byudjetga to'liq tushishini tashkil qilish ularning zimmasidagi asosiy vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining davlat byudjetiga to'lanadigan soliq va yig'imlarning hal qiluvchi qismini yuridik shaxs soliqlari va boshqa to'lovlari tashkil etadi. Yuridik shaxslar Respublika (umumdavlat) byudjetiga quyidagi soliqlar va yig'imlarni to'laydilar:

- yuridik shaxslarning daromadi (foydasi)ga soliq;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aktsiz solig'i;
- er osti boylıklaridan foydalanganlik uchun soliq;
- ekologiya solig'i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yalpi daromadidan soliq;
- bojxona boji;
- davlat boji;
- qimmatli qog'ozlarni ro'yxatdan o'tkazish yig'imi;
- DAN yig'imi;
- jarimalar;
- boshqa to'lovlar;

Yuridik shaxslar mahalliy byudjetlarga quyidagi soliqlar va yig'imlarni to'laydilar:

- kichik biznesning yagona solig'i;
- mol-mulk solig'i;
- (Reklama solig'i, avtotransport vositalarini olib sotganlik uchun soliq - 2003 yildan boshlab bekor qilindi).
- infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- savdo huquqini olish yig'imi;
- alohida tovarlarni sotish uchun litsenziya yig'imi;

- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish yig'imi;
- dehqon bozorida bir yo'la yig'im;
- qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona er solig'i;
- noqishloq xo'jalik tashkilotlari uchun er solig'i;
- boshqa to'lovlar.

Yuridik shaxslar soliq to'lovchi bo'lishi uchun yuridik shaxs maqomini olganidan tashqari, albatta, biror ruxsat etilgan faoliyatdan daromad olgan bo'lishlari zarur yoki tovarlar (ish, xizmatlar) sotishdan oborotga ega bo'lishlari hamda statistika idoralarida, hokimiyatlardan ro'yxatdan o'tgan (kodga ega) bo'lishlari shart har bir yuridik shaxsga identifikatsion raqam beriladi.

Yuridik shaxs bo'lib mulkka ega bo'lishlik, bordiyu soliqdan yoki boshqa sub'ektlardan qarzdor bo'lib qolsa, boshqa choralar ko'rilganda etarli bo'lmasa, ana shu mulklarini sotib (sud qaroriga asosan) soliqdan qutilish imkoniyati yaratiladi.

Yuridik shaxslar soliqlarini byudjet daromadlarini shakllantirish va pul muomalasini mustahkamlashdagi ahamiyati.

Yuqorida aytganimizdek, yuridik shaxslarning byudjetlarga to'laydigan soliqlari *to'g'ri* va *egri* soliqlarga bo'linadi.

To'g'ri soliqlar daromad (foyda) soliqlari va resurslar soliqlaridan tashkil topadi. Egri soliqlar esa qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, bojxona bojidan iboratdir. Yuridik shaxslarning bu soliqlari byudjet daromadlarini asosiy qismini tashkil etishi quyidagi jadval ma'lumotlarida ko'rinadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetida soliqlarning tutgan salmog'i

Soliqlar nomi	1996 y	1997 y	1998 y	2000 y	2001 y	2002 y	2003 y
1. Yuridik shaxslar daroma-diga (foydasiga) soliq	25,8	23,9	21,8	13,5	10,5	9,3	8,6
2. Kichik biznesning yagona solig'i	-	-	-	-	2,2	2,2	3
3. Mol-mulk solig'i	1,5	2,3	3,0	2,8	3,0	3,1	2,3
4. Er solig'i	3,5	3,6	4,0	4,0	3,9	2,8	2,6
5. Er osti boyliklari uchun soliq	0,6	1,3	2,1	1,2	1,0	0,9	1
6. Suv resurslaridan foydalanlanganlik uchun soliq	-	-	-	-	0,4	0,4	0,3
7. Qo'shilgan qiymat solig'i	17,7	25,1	25,3	29,7	24,6	28,6	27,9
8. Aktsiz solig'i	20,0	14,4	13,4	18,6	24,5	26,9	26,4
9. Bojxona boji	1,6	1,5	2,1	1,3	1,6	1,7	1,9
10. Boshqa soliqlar va yig'imlar (infra-struktura solig'i).	-	-	-	-	-	-	2
Jami	80	81	83	75	75	75,5	76

Yuqoridagi jadval ma'lumotlar ko'rsatadiki, yuridik shaxslar soliqlari ichida egri soliqlar salmog'i ortib borishi tendentsiyasiga ega, to'g'ri soliqlar salmog'i esa pasayib borish yo'nalishidadir. Bunday holat mahsulot ishlab chiqaruvchilarning hissasiga tushadigan soliq yukini kamaytirib, ularning ishlab chiqarish faoliyatini kuchaytiradi. Shu bilan birga to'g'ri va egri soliqlar byudjetning mustahkam manbasiga aylanib uning o'ta ijtimoiy zarur bo'lgan xarajatlarini o'z vaqtida va uzluksiz moliyalashtirish imkonini yaratadi. Bularning ahamiyati beqiyos kattadir. Bu soliqlarsiz byudjetlarni rejali moliyalashtirish iloji yo'q.

Yuridik shaxslar soliqlari pul muomalasini mustahkamlashda ham katta ahamiyatga ega. To'g'ri soliqlar yuridik shaxslarning xarajatlarga mo'ljallangan mablag'larini qisqartirib muomalaga oz pullarni chiqarishga olib keladi. Egri soliqlar esa tovarlar (ishlar, xizmatlar) tarkibida bo'lib, baho hisobiga muomaladagi ortiqcha pullarni muomaladan oladi. Shunday qilib soliqlar pul muomalasini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Soliqlarning oshishi tovar (xizmat, ish) taklifini oshiradi, talabni kamaytiradi. Bu esa pul emissiyasini kamaytiradi. Ammo taklifda real qiymati past bo'lganligidan inflyatsiyani paydo qilishi mumkin.

5.2. Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i

Yuridik shaxslarning to'laydigan soliqlari ichida ularning daromadi (foydasiga) soliq byudjet daromadlari tarkibida katta o'rin egallaydi. Bu soliq to'g'ri soliq bo'lganligi uchun xo'jalik sub'ektlarining to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy ahvoli bilan bog'liq, unga ta'sir etadi. Shuning uchun bu soliq salmog'ini davlat yildan-yilga kamaytirish siyosatini olib bormoqda. Masalan, 1996-1998 yillarda 21-25 foizlarni tashkil etgan bo'lsa, 2002 yildan boshlab 8-9,3 foizni 2003 yilda esa 8,6 foizni tashkil etdi.

Yuridik shaxslarning daromad (foyda)siga soliq - bu korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar daromadi (foydasiga)ning bir qismini byudjetga majburiy to'lov munosabatini bildiradi.

Soliq kodeksi bo'yicha daromad (foyda)ga ega bo'lgan yuridik shaxslargina bu soliqni to'lovchilari bo'ladi. Ammo, jami daromad, ulardan chegirib tashlanadigan chiqimlar soliq kodeksiga kiritilgan bo'lsa ham, ularni aniqlashni Vazirlar Mahkamasiga yuklatilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'zining 1999 yil 5 fevral 54-son qarori bilan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish hisoboti» to'g'risidagi Nizomni qabul qilgan. Jami daromad va soliqqa tortiladigan daromad ham shu nizom bilan belgilanadi.

Daromad (foyda)ga soliq to'lovchilari bo'lib, moliya yilida soliqqa tortiladigan daromad (foyda)ga ega bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Moliya yili bizning respublikamizda kalendar yiliga mos tushadi. Ammo hamma yuridik shaxslar ham bu soliqni to'layvermaydi. Kichik korxonalar, savdo tashkilotlari, gramplastinkalar ishlab chiqib sotuvchi tashkilotlar, yagona soliq to'lovchi chakana savdo korxonalari (kichik va mikrofirmalar), yagona er solig'i to'lovchi qishloq xo'jalik tovari ishlab chiqaruvchilar bu soliqni to'lamaydilar. Ular o'zlari uchun ixchamlashtirilgan soliqni to'laydilar. Bulardan tashqari tadbirkorlik faoliyatining faqat alohida turlariga qat'iy stavkada soliq to'lovchilar ham bu soliqni to'lamaydilar.

Soliqqa tortish maqsadida daromad (foyda) soliq to'lovchilarni rezidentlar va norezidentlarga ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb O'zbekistonda ta'sis etilgan yoki ro'yxatdan o'tgan hamda bosh korxonasi O'zbekistonda joylashib, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga identifikatsion raqam beriladi. Uning mazmuni tartib raqamiga mos keladi.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar O'zbekistonda va undan tashqaridagi faoliyatdan olgan daromadlaridan daromad (foyda) solig'iga tortiladilar.

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari esa faqat O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatishdan olgan daromadlari bo'yicha soliqqa tortiladilar.

Rezidentlar doimiy faoliyat ko'rsatuvchilar bo'lsa, norezidentlar faoliyati Respublikada o'tkinchi yoki vaqtinchalik xarakterga ega.

Daromadga (foyda)ga soliq to'lovchilarni to'liq tushunish uchun ularni iqtisodiyot soxalari bo'yicha ham soliq to'lovchilar bo'lishligini inobatga olish zarur. Masalan, sanoat, qurilish, transport, kommunal xo'jaligi va boshqalar kiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuridik shaxslar daromadiga (foydasiga) soliq to'lovchilari bo'lishi uchun qo'yidagi shartlarga javob berishi kerak:

- 1) biror ruxsat etilgan faoliyatdan daromad (foyda)olishi;
- 2) o'zining mulkiga ega bo'lishi;
- 3) mustaqil tugallangan buxgalteriya balansiga ega bo'lishi;
- 4) bankda hisob raqamiga ega bo'lishi;
- 5) identifikatsion raqamga ega bo'lishi;
- 6) hokimiyatdan ro'yxatdan o'tgan bo'lishi shart.

Umumiy tartib bo'yicha yuridik shaxslar shu shartlarga javob bersagina daromadga (foydaga) soliq to'lovchilar bo'lib hisoblanadilar.

Soliq to'lovchilari tarkibi, soliq ob'ekti

Yuridik shaxslarning daromadga (foydaga) solig'i bo'yicha soliqni to'liq, to'g'ri aniqlash (hisoblash) uchun ularning jami daromadlariga nimalar kirishini mukammal o'rganish zarur bo'ladi.

Yuridik shaxslarning jami daromadi tarkibiga ular tomonidan olinishi lozim bo'lgan (olingan) ortilgan tovar, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat haqlari kabi pul va bepul (pulsiz) qaytarmaslik sharti bilan olingan mablag'lar kiradi. Demak, olingan kreditlar jami daromadga kirmaydi.

Jami daromadga quyidagilar kiradi:

1. Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan tushum. Unga ortilgan mahsulot qiymatini to'lash uchun hisoblash hujjatlarida ko'rsatilgan summa; buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan, bajarilgan ishlar dalolatnomalarida ko'rsatilgan summalar; ko'rsatilgan xizmatni bajarilganligini tasdiqlovchi summalar kiradi. Vositachilik faoliyatidan (komission taqdirlash) daromad oluvchi tashkilotlar uchun tushum hamma bitimlar bo'yicha komission taqdirlash (protsentlar) summolari hisoblanadi.

2. Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, qimmatli qog'ozlar, intellektual mulk ob'ektlari, materiallar va boshqa aktivlar sotishdan daromadlar kiradi.

Soliqqa tortish maqsadida asosiy fondlar va boshqa mulklarni sotishdan daromadni aniqlashda shu fondlar mulklarni sotish bahosi va qoldiq summasi o'rtasidagi farq (oshishi) hisobga olinadi. Bu erda qoldiq qiymat hamma asosiy fondlar, moddiy aktivlar, kam qiymatli va tez buziladigan predmetlarga ham qo'llaniladi. Asosiy fondlar bepul berilganda berayotgan shaxsning aktivlar qiymati o'sha vaqtdagi tashkil topgan xarajatlar bilan, mulklarni oluvchining daromadi esa kirim qilingan qoldiq qiymat bilan, lekin bergan shaxsning tannarx qiymatidan kam bo'lmagan holda qabul qilinadi.

3. Foizlar va dividendlar turidan olingan daromadlar;

4. Bepul olingan mulklar. Lekin bepul olish bir tizim ichiga kiruvchi korxonalar tomonidan bo'lsa daromad bo'lmaydi. Tizim deyilganda vazirliklar, kontsernlar, trestlar va b. ichidagi harakatlar tushuniladi;

5. Mulklarni ijaraga berishdan daromadlar. Ammo amortizatsiya qilinadigan asosiy vositalar lizing shartnomasi bo'yicha ijaraga berilsa, soliqqa tortish maqsadida mulkni sotib olgan hisoblanadi;

6. Royalti-intellektual mulklarning huquqidan daromadlar, mualliflik haqlari, patentlari, chizmalar tovar belgilari, yangi modellardan daromadlar;

7. Bepul moliyaviy yordam (byudjet mablag'laridan tashqari);

8. Kreditorlik va deponentlik qarzlarini hisobdan chiqarishdan daromadlar, agar so'rov muddati tugagan bo'lsa. Umumiy so'rov muddati yuridik shaxslar uchun 3 yil qilib belgilangan;

9. Ilgari chegirma qilingan qarzlar, zararlar va umidsiz qarzlarni tushishidan olingan summalar;

10. Valyuta scheti bo'yicha ijobiy kurs farqlari;

11. Favqulodda daromadlar;

12. Har xil daromadlar;

13. Tovar moddiy boyliklarni qayta baholashdan qo'shimcha summalar soliq tortiladigan daromadga shu tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotishi bilan qo'shib beriladi.

Korxonalar (tashkilotlar) mahsulotlarini haqiqiy tannarx bahosidan past sotgandagi zararlar soliqqa tortiladigan daromadni kamaytirmaydi.

Ichki bozordan past bahoda o'z mahsulot (ish, xizmat)larni erkin almashtiriladigan valyutada sotuvchi korxonalar uchun soliqqa tortiladigan baza eksport mahsulotini sotishning haqiqiy bahosidan kelib chiqib hisobga olinadi.

Umumiy vazifalarni hal qilish uchun Ustav fondiga badallar, paylar va boshqa maqsadli quyilmalar yuridik shaxsning daromadiga kirmaydi va soliqqa tortilmaydi.

Korxonalarining chet el valyutasida olgan daromadlari ham umumiy daromadlarga qo'shilib soliqqa tortiladi. Bunda chet el valyutasida olingan daromad o'sha kundagi Markaziy bank belgilagan kurs bilan daromadga olinadi.

Jami daromaddan chegirmalarga quyidagilar kiradi va soliqqa tortiladigan daromaddan chegiriladi:

- qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, mol-mulk solig'i, er solig'i, er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq, ekologiya solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bojxona bojlari summolari;

- banklarning va boshqa moliya-kredit tashkilotlarining qisqa muddatli kreditlari bo'yicha foiz to'lovlari summolari, to'lov muddati o'tgan va to'lov muddati uzaytirilgan ssudalar bo'yicha foizlar bundan mustasno;

- xodimlarga ish haqi to'lash bo'yicha harajatlar (banklar, sug'urta tashkilotlari, videosalonlar va boshqa omaviy tomosha tashkilotlari bundan mustasno).

- belgilangan tartibda kiritilgan renta to'lovlari summasi;

- ijara haqi (lizing to'lovi);

- asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari;

- chet el yuridik va jismoniy shaxslarning moddiy xarajatlari va ko'rsatgan xizmatlari qiymati;

- majburiy sug'urta to'lovlari bo'yicha o'tkaziladigan qonun hujjatlariga muvofiq ish haqiga hisoblangan summalar;

- mahsulotlar (xizmatlar)ni sertifikatsiyalash ishlariga haq to'lash summolari;

- normalar bo'yicha xizmat safari, vakillik maqsadlari, reklama, kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash xarajatlari summolari;

- mahalliy hokimiyat tasdiqlagan normada soliq to'lovchi balansidagi sog'liqni saqlash ob'ektlari, qariyalar va nogironlar uylari, maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari, bolalarning dam olish lagerlari, madaniyat va sport ob'ektlari, xalq ta'lim muassasalari, uy-joy fondini saqlashga xarajatlar summolari, yuqoridagi maqsadlarga ulush qo'shib qilingan xarajatlar kamaytiriladi;

- qonun bo'yicha boshqa majburiy to'lovlar chegirib tashlanadi.

Yuridik shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlarini aniqlash uchun yuqorida ko'rsatilgan Nizom bo'yicha ularning jami daromadlaridan jami xarajatlarini (chegirmalarini) chiqarib tashlab shu Nizomda belgilangan daromadga qayta qo'shiladigan xarajatlarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Banklar va sug'urta tashkilotlarida Nizomdagi chegirmalardan tashqari jami daromaddan quyidagilar chegiriladi:

1. Banklar bo'yicha:

- kredit resurslari uchun to'lovlar;

- operatsion xarajatlar;

- pul mablag'lari va boyliklarni tashish va saqlash xarajatlari;

- mijozlarning hisobvaraqlari bo'yicha hisoblangan va to'langan foizlar, shu jumladan jismoniy shaxslarga;

- xavf-xatar operatsiyalari zaxirasi hisobotidan chiqarilgan umidsiz ssudalar.

2. Sug'urta tashkilotlari bo'yicha:

- qayta sug'urtalash shartnomasi bo'yicha berilgan to'lovlar summasi;

- hisobot davrining oxiriga harakati to'xtatilmagan sug'urtalash va qayta sug'urtalash shartnomasi bo'yicha to'lovlar;

- sug'urtalash va qayta sug'urtalash majburiyatlari bo'yicha hisoblangan va to'langan summalar;

- so'rov muddati atrofida sug'urta holat bo'yicha tugallanmagan to'lovlar summasi;

- zarar miqdori ko'rsatilmagan, sug'urta holat kiritilgan to'lovlar bo'yicha to'lovlar summasi;

- sug'urta holat oldini olish tadbirlariga yo'naltirilgan mablag'lar;

- sug'urta tashkilotining zaxira fondiga 20 foizgacha bo'lgan miqdorda ajratma, lekin shu fondlar miqdori ularning ustav fondining 25 foiziga etkuncha ajratmalar.

Soliq to'lovchilar (banklar va sug'urta tashkilotlaridan tashqari) so'rov muddati tamom bo'lishi bilan umidsiz qarzlarni chegirish huquqiga ega, agar ular tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotish bilan bog'liq bo'lib ilgari jami daromadga olingan bo'lsa.

Moliyaviy jazo choralari va hisoblangan penya summasi jami daromaddan chegirilmaydi.

Tadbirkorlik faoliyatida uch yildan ortiq foydalanilgan asosiy vositalar realizatsiya qilinganda vujudga kelgan zararlar jami daromaddan chegiriladi.

Qimmatli qog'ozlar realizatsiya qilinganda vujudga kelgan zararlar jami daromaddan chegirilmaydi.

Ish hayvonlari va ko'p yillik daraxtlardan foydalanganda vujudga kelgan zararlar faqat ana shu aktivlardan foydalanishdan olingan daromaddan chegirib tashlanadi.

Asosiy vositalarning soliq solinadigan davr mobaynida Soliq kodeksida belgilangan normalar doirasida hisoblangan amortizatsiya ajratmalari summalari jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Nomoddiy aktivlarga qilingan xarajatlar jami daromaddan eskirish tarzida har oyda ularning boshlang'ich qiymati asosida hisoblangan normalar bo'yicha chegiriladi.

Geologik tadqiqotlar va shunga o'xshash xarajatlar amortizatsiya normasi bo'yicha 15 foiz miqdorida chegiriladi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan hamda ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar jami daromaddan chegirilmaydi.

Moliya yilida soliq solinadigan daromad (foyda)ga ega bo'lgan yuridik shaxslar daromad (foyda) solig'i to'lovchilar hisoblanadi.

Soliq solish maqsadida yuridik shaxslar deganda yuridik shaxslarning daromadi (foydasiga) solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomada mulkida, xo'jalik yuritishi yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek, mustaqil balansga va hisob-kitob varag'iga ega bo'lgan alohida bo'limalar tushuniladi.

Yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga O'zbekiston Respublikasida hamda undan tashqarida ularning faoliyat manbalaridan olingan daromadlar (foyda) bo'yicha soliq solinadi.

O'zbekistonda ta'sis etilgan yoki ro'yxatga olingan, shuningdek O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ro'yxatga olingan, bosh korxonasi O'zbekistonda joylashgan yuridik shaxs O'zbekiston Respublikasining rezidenti hisoblanadi.

Byudjet bilan daromad (foyda) solig'i bo'yicha hisob-kitoblarni yuridik shaxslar mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ayrim tarmoqlar yuridik shaxslarining birlashmalari byudjet bilan hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan markazlashtirilgan tartibda amalga oshirishlari mumkin.

Soliq stavkalari va soliqqa tortish bazasini shakllantirish. Yuridik shaxslarning daromad (foyda)ga solig'i stavkalari har yili Oliy Majlis tomonidan Vazirlar Mahkamasining yangi yilga byudjet parametrlarini ko'rib chiqqanda tasdiqlanadi.

Yuqori chegara stavkasi 1998 yilda 36 foizdan 2001 yilda 26 foizga tushgan. 2002 yilda - 24 foiz, 2003 yilda - 20 foiz, 2004 yilda - 18%, 2005 yilda - 15% qilib belgilangan.

**2004 yilning yuridik shaxslar daromadiga
(foydasiga) soliq stavkalari**

№	To'lovchilar	Soliq tortiladigan daromadga, %
1	Yuridik shaxslar (2-4 punktlardagidan tashqari)	18
2	Lotoreya o'yinlarini o'tkazish, auksionlar va ommaviy-tomosha tadbirlari, gastrol-kontsert faoliyatiga litsenziyasi borlarning olgan daromadlari bo'yicha yuridik shaxslar, norezidentlarni ham qo'shib	35
3	Ustav fondida 50 foiz va undan ko'p hissasi bor chet el investitsiyasi bilan birga ishlovchi ishlab chiqarish korxonalari ustav fondining miqdori quyidagi ekvivalentga mos kelsa: 1 mln. AQSh dollari va undan oshig'i	16
4	Bolalar assortimenti tovarlari, ayollar gigienasi mahsulotlari, badiiy hunarmandchilik buyumlari va bolalar qo'g'irchoqlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar	10
5	Erkin almashtiriladigan valyutada o'zining tovar (ish, xizmati) eksport qilish hissasi eksport qiluvchi korxonalar uchun quyidagicha bo'lsa: Sotish hajmining: 15 foizdan 30 foizigacha 30 foiz va undan yuqori	Stavka 30% ga pasaytiriladi Stavka 2 marta pasaytiriladi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 13 noyabr 390-son qarori bilan:

- iste'mol tovarlarni ishlab chiqaruvchilar uchun shu tovarlarni ishlab chiqarishdan olgan daromaddan foydaga soliq stavkasini kamaytirib to'laydilar.

- bolalar assortimenti tovarlari ishlab chiqaruvchilar, shu tovarlarni ishlab chiqarishdan olgan daromadlaridan 7 foiz stavkada soliq to'laydilar.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning fizik hajmini oshirishdan olgan daromadlar soliq to'lashdan ozod etiladi.

o'z faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan soliq to'lovchi-norezident O'zbekistonda olgan daromadlaridan soliq to'lovchi bo'lib hisoblanadi. Ularning soliq to'lash tartibi umumiy qoidaga tushadi.

Norezident soliq to'lovchining daromadini chet elga o'tkazilayotganda 10 foiz miqdorida daromadga (foydaga) soliq undiriladi.

Yuridik shaxslarga to'lanadigan dividendar va foizlar to'lov manbaida 15 foizli stavka bilan soliqqa tortiladi.

Davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatli qog'ozlari bo'yicha dividendlar va foizlar soliq solishdan ozod etilgan.

Rezidentlar bo'lmish banklar va boshqa moliya kredit tashkilotlariga to'lanadigan foizlardan to'lov manbaida soliqqa tortilmaydi, balki banklar va moliya tashkilotlarida soliqqa tortiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 5 iyun farmoniga binoan 2000 yil 1 iyuldan boshlab har xil mulk shaklidagi eksporterlarning eksportdan olgan daromadi o'zi ishlab chiqargan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) erkin almashtiriladigan valyutaga sotilsa daromad (foydaga) solig'idan ozod etilgan.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi "Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va

sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi nizomga muvofiq jami daromad bilan chegirmalar o'rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqarilgan, yuqorida ko'rsatilgan Nizomning ilovalarida belgilangan xarajatlar summasiga tuzatishlar kiritilgan daromad (foyda) solig'i soliq ob'ekti hisoblanadi.

Banklar va sug'urta tashkilotlari bo'yicha belgilangan chegirmalardan tashqari quyidagilar ham jami daromaddan chegirilishi kerak;

a) banklar bo'yicha:

- kredit resurslari uchun to'lovlar;
- operatsion xarajatlar;
- pul mablag'lari va boyliklarini tashish va saklash xarajatlari;
- mijozlar hisobvaraqlari, shu jumladan - jismoniy shaxslarning omonatlari

bo'yicha hisoblab yozilgan va to'langan foizlar;

- tavakkallik operatsiyalari bo'yicha zaxira hisobiga hisobdan chikarilgan umidsiz ssudalar summalari.

b) sug'urta tashkilotlari bo'yicha:

- qayta sug'urtalash shartnomalari bo'yicha topshirilgan to'lovlar summalari;
- amal qilishi hisobot yilining oxirida tugamagan sug'urtalash va qayta sug'urtalash shartnomalari bo'yicha to'lovlar summalari;

• sug'urtalash va qayta sug'urtalash majburiyatlari bo'yicha amalga oshirilgan va hisoblab yozilgan To'lovlar summalari;

- o'tgan yillarning sug'urta hodisalari bo'yicha tugallanmagan to'lovlar summalari, shu jumladan, da'vo muddati doirasidagi majburiyatlar;

- sug'urta hodisasi boshlangani ma'lum qilingan, lekin zarar hajmi taqdim etilmagan shartnomalar bo'yicha sug'urta summalari;

- sug'urta tashkiloti tomonidan sug'urta hodisalari boshlanishining oldini olish va ogohlantirish chora-tadbirlarini moliyalashga yo'naltiriladigan mablag'lar summalari (preventiv chora-tadbirlar);

- sug'urta tashkilotlarining zaxira fondlariga ushbu fondlar miqdorlari sug'urta tashkilotlari ustav fondining yigirma besh foiziga etguniga qadar ushbu tashkilotlar daromadlarining yigirma foiziga qadar miqdorda ajratmalar.

Soliq to'lovchilar (bundan banklar va sug'urta tashkilotlari mustasno) da'vo muddati tugagach daromadlari ilgari jami daromadga kiritilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish bilan bog'liq umidsiz qarzlari bo'yicha chegirma qilish huquqiga egadirlar.

Yuridik shaxslarning daromadlari va ular bo'yicha tegishli chegirmalar soliqlarni hisoblab chiqarish uchun ular taalluqli bo'lgan hisobot davrida, to'lash vaqti va pulning kelib tushish sanasidan qat'iy nazar, buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aks ettiriladi.

Agar qilingan xarajat xarajatlarning bir necha toifasiga kiritilgan bo'lsa, u jami daromaddan faqat bir marotaba chegirilishi mumkin.

Uzoq muddatli shartnomalarga taalluqli daromad va chegirmalar moliya yili davomida ularni haqiqatda bosqichma-bosqich bajarish qismida hisobga olinadi.

Uzoq muddatli shartnomani haqiqatda bajarish moliya yili oxirigacha qilingan xarajatlarni mazkur kontrakt bo'yicha jami daromadlar bilan taqqoslash vositasida belgilanadi.

Jami daromad tarkibiga yuklab jo'natilgan tovar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar va boshqa operatsiyalar uchun yuridik shaxs olishi lozim bo'lgan (olgan) yoki tekinga olgan pud yoxud boshqa mablag'lar kiradi.

Bunday daromadlarga quyidagilar kiritiladi:

a) mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishidan keladigan tushum.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishidan keladigan tushum deganda:

yuklab jo'natilgan mahsulot uchun taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlarida ko'rsatilgan summalar;

buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan bajarilgan ishlar dalolatnomalarida ko'rsatilgan summalar;

xizmatlar ko'rsatilishi faktini tasdiqlaydigan hujjatlarda ko'rsatilgan summalar tushuniladi.

Vositachilik faoliyatidan daromad oladigan (komission haqlar, foizlar sifatida) korxonalar uchun tushum deganda soliq solinadigan davrda amalga oshirilgan barcha bitimlar bo'yicha olingan komission haqlar (foizlar) summasi tushuniladi.

b) asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kimmatli qog'ozlar, intellektual mulk ob'ektlari, materiallar va boshqa aktivlarni sotishdan keladigan daromad.

Korxonaning asosiy fondlari va boshqa mol-mulkini sotishdan keladigan daromadni belgilash chog'ida soliq solish maqsadi uchun ushbu fondlar va mol-mulkning sotilish va qoldiq qiymatlari o'rtasidagi farq (oshib ketish) hisobga olinadi. Bunda mol-mulkning qoldiq qiymati asosiy fondlar, moddiy aktivlar, arzon va tez eskiruvchan buyumlarga nisbatan qo'llaniladi.

Agar aktivlarning faqat bir qismi sotilsa, sotish sanasidagi aktivlar qiymati qolgan va sotilgan qismlar o'rtasida tasdiqlanadi.

Aktivlar bepul asosda yoki pasaytirilgan qiymat bo'yicha topshirilganda topshiruvchi shaxs aktivlarining qiymati shakllangan xarajatlardan kelib chiqib, olayotgan shaxs daromadlari esa - kirim qilingan baholash qiymati bo'yicha, lekin topshirilayotgan aktivlar tannarxidan past bo'lmagan tarzda, belgilanadi.

v) foizlar ko'rinishidagi daromadlar;

g) dividendlar;

d) bepul olingan mol-mulk.

Agar mablag'larni bepul topshirish tizim ichida korxonalar o'rtasida yuz bersa, bunda tizim deganda vazirlik, kontsern, trest va hokazolar tushuniladi va bu mablag'lar taqsimlash balansi bo'yicha, yuqori tashkilot buyrug'iga ko'ra olingan bo'lsa, ular soliq solish ob'ekti hisoblanadi.

e) mol-mulkni ijara (lizing)ga berishdan olingan daromad;

Bunda shuni nazarda tutish lozimki, agar ijaraga beruvchi amortizatsiyalanadigan asosiy vositalarni lizing shartnomasi bo'yicha ijaraga topshirsa, operatsiya soliq solish maqsadida ijarachi tomonidan mol-mulk xarid qilinishi sifatida qaralishi kerak.

Agar u quyidagi shartlardan biriga javob bersa, amortizatsiyalanadigan asosiy vositalarning ijarasi lizing hisoblanadi:

- ijara muddati asosiy vositalar xizmat muddatining sakson foizidan oshib ketsa;
- ijarachi asosiy vositalarni qat'iy narxda yoki ijara tugaganidan keyin belgilanadigan narxda sotib olish huquqiga ega bo'lsa;

- ijaraga olinadigan asosiy vositalarning qoldiq qiymati ijara tugaganidan keyin ijara boshidagi ular qiymatining yigirma foizidan kamni tashkil etsa;

To'lovlarning joriy summasi butun ijara davri uchun ijaraga olinadigan vositalar qiymatining to'qson foizidan oshsa.

Mazkur kichik band ikkinchi qismining qoidalari lizing shartnomasini uzaytirish huquqi amalga oshirilishi mumkin bo'lgan davrga tatbiq etiladi.

j) royalti;

z) tekin moliyaviy yordam (davlat byudjetidan subsidiyalar bundan mustasno);

i) da'vo muddati o'tib ketgan kreditorlik va deponentlik qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;

k) da'vo muddati - shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo taqdim etish yo'li bilan himoya qila olishi mumkin bo'lgan muddat. Da'voning umumiy muddati - uch yil;

l) ilgari chegirilgan xarajatlar, zararlar yoki gumonli qarzlarni qoplash ko'rinishida olingan daromadlar;

m) valyuta hisobvaraqlari bo'yicha kursdagi musbat farq;

n) favqulodda daromadlar;

o) boshqa daromadlar.

5.3. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqni undirish mexanizmi

Jismoniy shaxslar daromadiga soliq to'lovchilari bo'lib, moliya yilida soliqqa tortiladigan daromadga ega bo'lgan har qanday jismoniy shaxs hisoblanadi.

Jismoniy shaxsning soliqqa tortiladigan daromadi jami yillik daromadga soliqqa tortilmaydigan daromadlarni kiritmasdan (58 m), daromadiga soliqdan ozod etiladiganlarni chiqarib tashlab aniqlanadi.

Soliqqa tortish maqsadida jismoniy shaxslar daromadi rezidentlar va nerezidentlar daromadiga bo'linadi.

Boshlanayotgan yoki tugayotgan moliya yilida 12 oygacha bo'lgan istalgan davrda O'zbekiston hududida 183 kun va undan ortiq yashovchi jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi rezidenti deb ataladi Shu ko'rsatilgan muddatdan kam yashagan jismoniy shaxslarga nerezident deb ataladi.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasida va undan tashqaridagi manbalardan olgan daromadlari bo'yicha daromadga soliqqa tortiladi.

O'zbekiston Respublikasi nerezidenti faqat O'zbekiston hududidan olgan daromadidan soliq to'laydi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida rezident shaxslar tomonidan to'langan soliq summasi O'zbekiston Respublikasida soliq to'lash paytida O'zbekiston Respublikasining qonunlari va xalqaro qonunlarga binoan hisobga olinadi.

Hisobga olinayotgan soliq summasi O'zbekiston Respublikasida harakatda bo'lgan soliq stavkasida hisoblangan jismoniy shaxslarning daromadiga solig'i summasidan oshib ketmasligi kerak.

Soliq ob'ekti bo'lib, Soliq Kodeksiga muvofiq belgilanadigan jami yillik daromad hisoblanadi

Bu erda eng muhim narsa jismoniy shaxsning jami yillik daromadiga qanday daromadlar kirishi, qanday daromadlar kirmasligi va qanday imtiyozlar olish mumkinligi aniq belgilashdir.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi tarkibiga soliq to'lovchi olishi mumkin bo'lgan yoki tekinga olgan pul yohud buyum shaklida olgan pul mablag'lari kiradi.

Jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibi 3 guruhga bo'linadi.

1. Mehnat haqi tariqasida olingan daromadlari (eng asosiy daromadlar).

2. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari.

3. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadlari. Yuqoridagi daromadlarning har birini tarkibini aniq bilib olish zarur bo'ladi.

Jismoniy shaxslarning mehnat haqqi tariqasida olgan daromadlari tarkibiga mehnat shartnomasi bo'yicha faoliyatdan va fuqorolik - huquqiy shartnomalari bo'yicha olingan daromadlari kiradi.

Mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

1) Xodimlarga sotiladigan tovarlar(ishlar, xizmatlar) qiymati bilan bunday tovarlarni(ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish narxi yoki ularning tannarxi o'rtasidagi manfiy farq;

2) Ish beruvchi tomonidan o'z faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan, xodimlarning chiqimlarini qoplash uchun qilingan xarajatlar;

3) Xodim ish beruvchiga to'lashi kerak bo'lgan, ammo ish beruvchining hisobidan chiqarilgan qarz summolari;

4) Ish beruvchi o'z xodimlarining hayoti yoki sog'ligini ixtiyoriy sug'urtalash badallarini to'lash uchun qilingan xarajatlar;

5) Ish beruvchining jismoniy shaxsdan ushlab qolinishi lozim bo'lgan to'lovlar yuzasidan to'lagan summalari;

6) Ish beruvchining o'z xodimlarining bevosita yoki bilvosita daromadlarini tashkil etadigan boshqa xarajatlari.

Xodimlarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan me'yorlari doirasida beriladigan xizmat safari to'lovlarining summasi jami yillik daromadga kirmaydi. Ammo, me'yordan ortiq xarajatlar jami yillik daromad tarkibiga kiradi. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga foizlar, dividendlar bo'yicha olingan daromadlar va mulkni ijaraga berishdan keladigan daromadlar kiradi.

Dividend va foiz daromadlar asosan qimmatli qog'ozlardan (oddiy va imtiyozli aktsiyalar, akkreditivlar va boshqalar) hamda shirkatlarda sherikchilikdan olgan daromadlardir.

Mulklarni ijaraga berish tadbirkorlikka kirmaydi.

Ijara daromadlariga:

1. Kvartiralar, garajlarni ijaraga berish;
2. Yuk mashinalarni, engil mashinalarni ijaraga berish;
3. Uy - anjomlarini va boshqa mulklarni ijaraga berishlari kiradi.

Jismoniy shaxslarning uchinchi guruh oladigan daromadlariga tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlar kiradi.

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadga yana tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan, yakka tartibda amalga oshirilayotgan boshqa faoliyatdan keladigan barcha tushumlar ushbu daromadni topish bilan bog'liq xarajatlar, majburiy to'lovlar, chiqimlar va ajratmalar chegirib tashlangan holda kiradi.

Soliq ob'ektini aniqlash maqsadida chegirib tashlanishi lozim bo'lgan xarajatlar, majburiy to'lovlar chiqimlar va ajratmalarni aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga soliq solishning alohida tartibi o'rnatilgan.

Daromadga qat'iy soliq solish 2004 yilda ham quyidagilarga davom ettirildi:

1. Yuridik shaxs bo'lmasdan turib tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga.

2. Tadbirkorlik faoliyatining alohida turlari bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarga.

Qat'iy soliqning chegara stavkasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Aniq faoliyatlarning turlari va joylashgan joyiga qarab Qaraqalpog'iston Respublikasi vazirlar kengashi, viloyat hokimliklari va Toshkent shahar hokimligi tomonidan belgilanadi.

Qat'iy soliq bo'yicha taqdim etilgan hisoblardan hisobga olinmagan fizik ko'rsatkichlar aniqlansa, soliq ob'ektini yashirish deb qaraladi.

Jismoniy shaxs bir necha faoliyat turi bilan shug'ullansa har bir faoliyatdan soliqni alohida - alohida to'laydi. Ishbilarmonlik faoliyati bo'yicha ijaraga olingan asbob - uskunalar va joylaridan foydalanilsa, shu jumladan, ishonchli qog'ozli transportda, o'zlari joylashgan soliq idoralariga ijaraga beruvchi xaqida ma'lumotnoma taqdim etishlari shart.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va jismoniy shaxslarning daromadiga soliq bo'yicha qonunchilikka binoan soliq stavkalari quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- jismoniy shaxslarning ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlariga solinadigan differentsial progressiv soliq stavkalari;
- jismoniy shaxslarning rezidentlarning dividend va foiz tarzida oladigan daromadiga soliq stavkalari;
- manbada to'lanadigan norezident daromadiga soliq stavkalari;
- imtiyozli soliq stavkalari (13, 20 va 25 foiz).

Jismoniy shaxslarning ish haqi, mukofotlari va boshqa daromadlaridan soliq qo'yidagi miqdorda undiriladi:

Jami daromad miqdori	Soliq summasi
Eng kam ish haqining besh baravari miqdorigacha	Jami daromad summasining 13 foizi
Eng kam ish haqining besh baravari miqdoridan (+1 so'm) o'n baravari miqdorigacha	Eng kam ish haqining besh baravaridan olingan soliq + besh baravaridan oshgan qismidan 21 foiz
Eng kam ish haqining o'n baravari miqdoridan (+1 so'm) va undan yuqori miqdoridan	Eng kam ish haqining o'n baravari miqdoridan olinadigan soliq + o'n baravaridan oshgan summadan 30 foiz

Soliqqa tortish maqsadida eng kam ish haqining miqdori yil boshidan etiboran ortib boruvchi yakun tarzida hisoblanadi (yil boshidan e'tiboran tegishli davr uchun eng kam ish xaqining oylik miqdorlari summasi yig'indisi).

Jismoniy shaxslar-rezidentlarning dividendlar va foizlar daromadlariga 2003 yildan boshlab Soliq Kodeksiga binoan ozod qilinadiganlaridan tashqarisiga to'lov manbaida 15 foiz miqdorida soliq ushlab qolish tartibi belgilangan. Davlat qimmatli qog'ozlari va depozitlaridan dividend va foiz bo'yicha soliq to'lash bekor qilingan

Norezident jismoniy shaxslarning doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmagan holda O'zbekiston Respublikasidagi manbadan olgan daromadlariga ularni to'lash manbai chegirmasiz quyidagi miqdorlarda stavkalar bo'yicha soliq ushlanib qolinadi:

- dividendlar va foizlar - 15 foiz;
- tavakkalchilikni sug'urtalash yoki qayta sug'urtalashga to'langan sug'urta mukofotlari - 10 foiz;
- O'zbekiston Respublikasi bilan boshqa davlatlar o'rtasida harakat qilishda xalqaro aloqa, telekommunikatsiyalar yoki transport xizmatlari (fraxta) uchun - 6 foiz;
- royalti, ijaradan olinadigan daromadlar xizmat ko'rsatish, shu jumladan, boshqaruv maslahat xizmatlari ko'rsatishdan keladigan daromadlar va boshqa daromadlar (daromad solig'i solinadigan daromad bunga kirmaydi) - 20 foiz

Ushbu to'lov manbaida soliqqa tortish tartibi to'lov O'zbekiston Respublikasi ichida yoki uning tashqarisida amalga oshirilganidan qat'iy nazar, tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zararli va og'ir sharoitda ishlarda band bo'lgan jismoniy shaxslarning ayrim toifalari uchun, shuningdek, tabiiy - iqlim sharoitlari yomon joylarda ishlash bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha to'lovlar bo'yicha imtiyozli daromad solig'i stavkalarini belgilagan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 12 may 250-son qaroriga kiritilgan 1, 2 va 3 ro'yxatdagi xodimlarning o'ta zararli, o'ta og'ir sharoitlarda olgan daromadlaridan ushlangan soliq miqdori 25 foizdan oshmasligi ko'rsatilgan. Soliq summasi jami daromadlarning 25 foiz stavkasidan oshgan qismi imtiyoz tariqasida chiqarib tashlanadi. Og'ir va o'ta og'ir sharoitlarda ishlovchi ayollarga imtiyozli 20 foizli soliq stavkasi belgilangan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 27 dekabr 562 - son qarori).

Belgilangan qonunchilik bo'yicha og'ir tabiiy sharoitlarda ishlovchilarga ish haqiga qo'shimcha summalar, koeffitsientlar (tog'lik, sahro va suvsiz tumanlar) uchun ko'rsatilgan summalardan soliq imtiyozli eng kam stavkada (13 foiz) hisoblanadi. Demak, bu erda qo'shimcha daromadlarga eng kam yagona soliq stavkasi qo'llaniladi.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortayotganda dividend, foiz daromadlari jami daromad tarkibiga kiritilmaydi, chunki ular bo'yicha soliq alohida hisoblangan bo'ladi.

Jismoniy shaxslar daromadiga soliqdan imtiyozlarni uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari (soliq solinadigan daromadga kiritilmaydi).

2. Soliqdan to'liq ozod bo'ladigan jismoniy shaxslar.

3. Soliqdan har bir to'liq oy uchun to'rt karrali minimal ish haqi miqdorida ozod etilish.

Daromadga soliqdan to'liq ozod etiladigan jismoniy shaxslar mavjud bo'lib, bularga quyidagilar kiradi:

1. Xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalarining boshliqlari va a'zolari hamda konsullik muassalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa - O'zbekistondagi olingan manbalardan. Diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlari ozod etilmaydi.

2. Diplomatik va konsullik vakolatxonalarining xodimlari va ularga o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekistonda doimiy yashamasa, O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromatlardan tashqari barcha daromadlari bo'yicha.

3. Xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa - o'z xizmat yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha.

4. Xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalarini va konsullik muassasalari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O'zbekiston fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekistonda doimiy yashamasa - o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlar bo'yicha.

5. Hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro tashkilotlarning mansabdor shaxslari - agar ular O'zbekiston fuqarosi bo'lmasa, shu tashkilotlarda olgan daromadlari bo'yicha.

6. Mudofaa, ichki ishlar va favqulotda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, ichki ishlar organlari va bojxona organlarining oddiy xizmatchilari va boshliqlari tarkibiga mansub shaxslar, o'quv yoki sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar - xizmatni o'tash munosabati bilan olgan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lov summalari bo'yicha.

7. Gastrol kontsert faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo'lgan shaxslar gastrol-kontsert faoliyatida olingan daromadlari bo'yicha.

Daromadga soliqdan qisman, ya'ni har oyda to'rt karrali eng kam ish haqi miqdorida soliqdan ozod etish hollari ham mavjud. Ular quyidagilardir:

1. «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan shaxslar, uchala darajali Shuxrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar, urush nogironlari yohud 1941-1945 yillardagi urush davrida, yoki harbiy xizmatni boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanish, kontuziya bo'lish yoki shikastlanish oqibatida yohud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar jumlasidan bo'lgan boshqa nogironlar, shuningdek, pensiya ta'minoti bo'yicha mazkur toifadagi xizmatchilarga tenglashtirilgan boshqa nogironlar,

2. Xizmatni harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarida o'tagan harbiy xizmatchilar, sobiq partizanlar jumlasidan bo'lib, fuqarolar urushi va 1941-1945 yillardagi urush, sobiq SSSR ni himoya qilish bo'yicha boshqa jangovor operatsiyalarning qatnashchilari, 1941-1945 yillardagi urush davri mehnat frontining faxriylari va kontsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqinlari.

3. Leningrad qamali paytida 1941 yil 8 sentyabrdan 1942 yil 27 yanvargacha bo'lgan davrda Leningrad shahrida ishlagan fuqarolar.

4. Ichki ishlar organlarining boshliqlari va oddiy xizmatchilari jumlasidan bo'lib, xizmat vazifalarini bajarish chog'ida yaralanish konto'ziya bo'lish va shikastlanish oqibatida nogiron bo'lib qolganlar.

5. Bolalikdan nogiron bo'lib qolganlar, shuningdek I va II guruh nogironlari.

6. Qahramon onalar, 10 va undan ortiq bolasi bo'lgan ayollar.

7. Sobiq SSSRni himoya qilish yohud harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanish konto'ziya bo'lish yohud shikastlanish oqibatida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq bo'lgan kassalik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning ota-onalari va rafiqalari.

8. Xizmatni Afg'onistonda va jangavor harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo'lgan qo'shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o'ggan harbiy xizmatchilar hamda o'quv va sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar.

9. Chernobil AESdagi falokat oqibatida jabr ko'rgan shaxslar.

10. Ikki va undan ortiq 16 yoshga to'lmagan bolalari bor yolg'iz onalar.

11. Ikki va undan ortiq bolasi bor va boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayollar va beva erkaklar.

12. Bolaligidan nogiron bo'lgan va doimiy parvarishni talab qiladigan farzandi bilan birga yashab uni tarbiyalayotgan ota - onasidan biri.

13. Korxonalar, muassasalar tashkilotlar va o'quv yurtlari tomonidan qishloq xo'jalik ishlariga yuborilgan fuqarolar - ushbu ishlarni bajarganlik uchun olgan daromadlari bo'yicha to'rt karrali minimal ish haqi miqdorida har oyda imtiyozga egadirlar.

Jismoniy shaxslarning imtiyozlariga bo'lgan huquqi ular hisobot yili uchun tegishli hujjatlarni taqdim etganda vujudga keladi.

To'rt karrali imtiyoz qishloq xo'jaligiga jalb qilingandan tashqari, jismoniy shaxslarning olgan dividend va foiz daromadlari va ijara daromadlariga ham tegishli bo'ladi.

Agar imtiyoz oluvchining asosiy ish joyi bo'lsa, imtiyoz shu erda beriladi, asosiy ish joyi bo'lmasa soliq idorasi tomonidan deklaratsiya asosida yillik daromadga qarab beriladi. Imtiyozlar olish uchun jismoniy shaxslar tegishli hujjatlarga ega bo'lishi shart.

O'z-o'zini tekshirish va takrorlash uchun savollar:

1. O'zbekiston soliq tizimi necha pog'onali qilib belgilangan?
2. O'zbekiston soliq tizimini qaysi soliq turlari tashkil etadi?
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi qachon qabul qilingan?
4. O'zbekiston soliq tizimida soliqlar soliqqa tortish ob'ektiga qarab necha va qaysi guruhlarga bo'lingan?
5. Soliqlar iqtisodiy mohiyatiga qarab qaysi soliqlarga bo'lingan?
6. Umumdavlat soliqlari tarkibiga qaysi soliqlar kiritilgan?
7. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetida soliqlarning tutgan o'rniga baho bering.
8. Yuridik shaxslarning daromad solig'ini undirish mexanizmi qaysi tartib asosida belgilangan?
9. Bugungi kunda yuridik shaxslarning daromad solig'i bo'yicha qaysi soliq stavkalari amal qiladi?
10. Jismoniy shaxslarning jami daromadlari qaysi guruhlarga bo'linadi?
11. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash tartibini aytib bering.
12. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha soliq stavkalari qaysi tartib bo'yicha belgilangan?
13. Qaysi jismoniy shaxslar daromad solig'idan to'liq ozod etiladi?
14. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlarining keltirib o'ting.

Soliq atamalarining qisqacha lug'ati
(ingliz, rus va o'zbek tillarida)

A		
1. Abatement	Nalogovaya skidka	Soliq chegirmasi
2. Abuse of law	Zloupotreblenie	Suiiste'mol
3. Accelerated depreciation	Metod uskorennoy amortizatsii	Tezlashtirilgan amortizatsiya usuli
4. Accounting period	Otchetniy period	Hisobot davri
5. Added value	Dobavlenaya stoimost	Qo'shilgan qiymat
6. Administrative expenses	Administrativnie rasxodi	Boshqaruv harajatlari
7. Allowance	Nalogovaya lgota	Soliq imtiyozi
8. Amortization method	Metod amortizatsii	Amortizatsiya usuli
9. Anti-avoidance measures	Meri po borbe s ukloneniem ot nalogov	Soliqdan qochishga qarshi kurash usullari
10. Assessment	Nachislenie naloga	Soliq hisobi
11. Assessment, basis of	Nalogooblagaemaya baza	Soliqqa tortiladigan baza
12. Assessment period	Period, za kotoriy nachislyaetsya nalog	Hisoblanadigan soliq davri
13. Avoidance, tax	Uklonenie ot nalogov	Soliqdan qochish
14. Avoir fiscal	Nalogovie rezervi	Soliq zaxiralari
B		
15. Balance sheet	Otchetniy balans predpriyatiya	Korxonaning hisobot balansi
16. Base stock	Tovarnie zapasi	Tovar zaxiralari
17. Bonds	Obligatsii	Obligatsiyalar
18. Book value	Uchetnaya stoimost imushchestva	Mol-mulkning hisob qiymati
19. Business assets	Kommercheskie aktivi predpriyatiya	Korxonaning tijorat aktivlari
20. Business income	Kommercheskaya pribil predpriyatiya	Korxonaning tijorat foydasi
21. Business tax	Promisloviy nalog	Hunarmandchilik solig'i
S		
22. Capital gains tax	Nalog na prirost kapitala	Kapital o'sishiga soliq
23. Capital goods	Osnovnie sredstva	Asosiy vositalar
24. Capital, income from	Doxod ot primeneniya kapitala	Kapitaldan foydalanishidan olingan daromad
25. Capital losses	Ubitki ot primeneniya kapitala	Kapitaldan foydalanishidan ko'rilgan zararlar
26. Code, tax	Nalogoviy kodeks	Soliq Kodeksi
27. Collection of tax	Sbor nalogov	Soliqlar yig'imi
28. Complementary tax	Dopolnitelny nalog	Qo'shimcha soliq
29. Consumption tax	Nalog na potreblenie	Iste'mol solig'i
30. Controlled foreign companies	Kontroliruemie zarubejnie kompanii	Nazorat qilinuvchi xorij kompaniyalari
31. Corporate income tax	Nalog na pribili korporatsiy	Korporatsiyalar foydasiga soliq
32. Cost price	Sebestoimost proizvodstva produktsii	Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi
33. Credit, foreign tax	Kredit v otnoshenii	Xorijda to'langan

		nalogov, uplachen-nix za rubejom	solliqlarga nisbatan kredit
34.	Current assets	Oborotnie aktivi	Oborot aktivlari
35.	Customs duties	Tamojennie poshlini	Bojxona bojlari
D			
36.	Death duties	Nalog na nasledstva	Meros solig'i
37.	Debenture	Dolgovie obyazatelstva	Qarzdorlik majburiyatlari
38.	Deductions	Nalogovie vicheti pri ischislenii	Soliqqa tortiladigan bazani hisoblashdagi soliq
		nalogooblagaemoy bazi	chegirmalari
39.	Deferment of tax	Otsrochka uplati naloga	Soliqni to'lashni kechiktirish
40.	Direct taxes	Pryamie nalogi	To'g'ri solliqlar
41.	Dividend	Dividendi	Dividendlar
42.	Domestic corporation	Mestnaya korporatsiya	Mahalliy korporatsiyalari
43.	Double taxation, economic	Dvoynoe nalogooblojenie	Ikkiyoqlama soliqqa tortish
44.	Double taxation, international	Dvoynoe nalogooblojenie	Ikkiyoqlama soliqqa tortish
45.	Duty-free zone	Beznalogovaya zona	Soliqsiz zona
E			
46.	Earnings basis	Osnovnaya zarabotnaya plata	Asosiy ish haqi
47.	Effective rate of tax	Realnaya stavka nalogooblojeniya	Soliqqa tortishning haqiqiy stavkasi
48.	Estate duty/tax	Nalog na nasledstva	Meros solig'i
49.	Excise duties	Aktsizi	Aktsizlar
50.	Exemption	Osvobojenie ot naloga	Soliqdan ozod etish
51.	Expenses	Rasxodi	Xarajatlar
52.	Export duty	Ekspornie tamojennie poshlini	Eksport bojxona bojlari
F			
53.	Federal taxes	Federalnie nalogi	Federal solliqlar
54.	Fine, administrative	Administrativnie sanktsii	Boshqaruv sanktsiyalari
55.	Fiscal year	Otchetniy god	Hisobot yili
56.	Fixed assets	Osnovnie sredstva	Asosiy vositalar
57.	Flat rate	Tverdiy nalog	Qat'iy soliq
58.	Flat rate taxation	Proportsionalnoe nalogooblojenie	Qat'iy soliqqa tortish
59.	Foreign exchange control	Valyutniy kontrol	Valyuta nazorati
60.	Foreign exchange gains and losses	Pribil i ubitok ot valyutnix operatsiy	Valyuta operatsiyalaridan foyda va zararlar
61.	Foreign exchange tax	Nalog na valyutnie operatsii	Valyuta operatsiya-lariga soliq
62.	Foreign investment incentives	Lgoti dlya inostrannix investitsiy	Xorijiy investitsiyalari uchun imtiyozlar
63.	Foreign trade tax	Nalog na vneshneekonomicheskie operatsii	Tashqi iqtisodiy operatsiyalarga soliq
64.	Free trade area	Zona svobodnoy trgovli	Erkin savdo zonasi
G			
65.	Gifts inter vivos/gift tax	Nalog na dareniya	Sovg'a solig'i
66.	Gross income, taxes on	Nalogi na valovuyu viruchku predpriyatiy	Korxonaning yalpi tushumiga solliqlar

67.	Gross profit	Valovaya pribil predpriyatiya	Korxonaning yalpi foydasi
68.	Gross profits tax	Nalog na valovuyu pribil	Yalpi foyda solig'i
N			
69.	Hidden reserves	Skritie rezervi	Yashiringan rezervlar
70.	Holding company	Xoldingovaya kompaniya	Xolding kompaniyasi
I			
71.	Immovable property gains	Nalog na prirost stoimosti nedvijimogo imushchestva	Ko'chmas mulkning qiymatini o'sishiga soliq
72.	Immovable property tax	Nalog na nedvijimoe imushchestvo	Ko'chmas mulkka soliq
73.	Imputation system	Imputatsionnaya sistema	Imputatsion tizim
74.	Income taxes	Podoxodniy nalog	Daromad solig'i
75.	Indirect taxes	Kosvennie nalogi	Egri soliqlar
76.	Individual income tax	Nalog na doxodi grajdan	Aholi daromadlariga soliq
77.	Industrial and commercial profits tax	Nalog na promishlennuyu i kommercheskuyu pribil	Tijorat va ishlab chiqarish foydasiga soliq
78.	Interest	Protsenti	Foizlar
79.	Investment company	Investitsionnaya kompaniya	Investitsiya kompaniyasi
80.	Investment incentives	Investitsionnie lgoti	Investitsiya imtiyozlari
81.	Investment income	Investitsionnie doxodi	Investitsiya daromadlari
82.	Investment reserve	Investitsionniy rezerv	Investitsiya zahiralari
J			
83.	Joint assessment	Nachislenie naloga na obshchiy doxod	Umumiy daromadga hisoblangan soliq
84.	Joint return	Sovmestnaya deklaratsiya dlya semeynix par	Oila uchun qo'shma deklaratsiya
85.	Joint venture	Sovmestnoe predpriyatie	Qo'shma korxonasi
K			
86.	Know-how	"Nou-xau"	"Nou-xau"
L			
87.	Land tax	Pozemelniy nalog	Er solig'i
88.	Leasing	Lizing	Lizing
89.	Legal entity	Yuridicheskoe litso	Yuridik shaxs
90.	Levy	Poshlina	Boj
91.	Licence duties and taxes	Nalogi na vidachu litsenziy	Litsenziya berganlik uchun soliqlar
92.	Life insurance	Straxovanie jizni	Hayot sug'urtasi
93.	Local taxes	Mestnie nalogi	Mahalliy soliqlar
94.	Low-tax countries	Strani s ponijennim urovнем nalogooblojeniya	Soliqqa tortish darajasi pasaytirilgan mamlakatlar
95.	Lump-sum deductions	Obshchie vicheti iz oblagaemogo doxoda	Soliqqa tortiladigan daromaddan umumiy chegirmalar
96.	Luxury taxes	Nalogi na predmeti roskoshi	Qimmatbaho buyumlarga soliqlar
M			
97.	Machinery and plant	Mashini i oborudovanie	Mashinalar va uskunalar
98.	Management expenses	Upravlencheskie rasxodi	Boshqaruv harajatlari
99.	Minimum tax	Minimalniy nalog	Minimal soliq
100.	Model tax conventions	Model nalogovogo	Soliq kelishuvi modeli

	soglasheniya	
101. Multilateral tax treaties	Mnogostoronnie nalogovie soglasheniya	Ko'p tomonlama soliq kelishuvlari
102. Multy-stage taxation	Nalogooblojenie po oborotu	Oborotga nisbatan soliqqa tortish
103. Municipal taxation	Mestnoe nalogooblojenie	Mahalliy soliqqa tortish
	N	
104. Net income	Chistiy doxod	Sof daromad
105. Net profits	Chistaya pribil	Sof foyda
106. Net wealth tax	Nalog na sostoyaniya	Mol-mulk solig'i
107. Non-resident	Nerezident	Norezident
	O	
108. Offshore companies	Offshornie kompanii	Offshor kompaniyalar
109. Option to be taxed	Vibor rejima nalogooblojeniya	Soliqqa tortish rejimini tanlash
	P	
110. Penalties	Shtrafi, sanktsii	Jarimalar, sanksiyalar
111. Pension fund	Pensionnie fondi	Pensiya fondlari
112. Personal allowances	Lichnie lgoti	Shaxsiy imtiyozlar
113. Planning, tax	Nalogovoe planirovanie	Soliqli rejalashtirish
114. Precompte	Avansovaya uplata naloga	Soliqni avans to'lovi
115. Profit distribution	Raspredelenie pribili	Foydaning taqsimlanishi
116. Profit-sharing tax	Nalog na raspredelenie pribiley	Taqsimlangan foydaga soliq
117. Profits tax	Nalog na pribil	Foyda solig'i
118. Property tax	Nalog na nedvijimoe imushchestvo	Ko'chmas mulkka soliq
	R	
119. Rates	Nalogovie stavki	Soliq stavkalari
120. Real property tax	Nalog na nedvijimost	Mulk solig'i
121. Recovery of tax	Vozvrat naloga	Soliqni qaytarish
122. Reduced rates	Ponijennie stavki	Pasaytirilgan stavkalar
123. Re-exportation	Reeksport	Reeksport
124. Refund (of tax)	Vozmeshchenie naloga	Soliqni qoplash
125. Registration dues and taxes	Registratsionnie nalogi i poshlini	Registratsiya soliqlari va bojlari
126. Re-importation	Reimport	Reimport
127. Reserves	Rezervi	Zaxiralar
128. Residence, fiscal	Rezidentstvo	Rezidentlik
129. Returns	Nalogovaya deklaratsiya	Soliq deklaratsiyasi
	S	
130. Salaries	Zarabotnaya plata	Ish haqi
131. Salary taxes	Naloga na zarabotnuyu platu	Ish haqidan olinadigan soliqlar
132. Sales tax	Nalog na prodaji	Sotishga soliq
133. Schedular taxation	Shedulyarnaya sistema oblojeniya doxodov	Daromadlarni soliqqa tortishning shedul tizimi
134. Scope of tax	Nalogovaya yurisdiksiya	Soliq yurisdiksiyasi
135. Securities	Tsennie bumagi	Qimmatbaho qog'ozlar
136. Separate assessment	Razdelnoe nachislenie naloga	Soliqni alohida hisobi
137. Separate taxation	Razdelnoe	Daromadlarni alohida

	nalogooblojenie doxodov	soliqqa tortish
138. Shifting of profits	Delenie pribiley	Foydani taqsimlanishi
139. Simplified returns	Uproshchennaya forma	Soliq deklaratsiya-larning
	nalogovix deklaratsiy	soddalash-tirilgan shakli
140. Small business corporation	Predpriyatiya malogo	Kichik biznes korxonolari
	biznesa	
141. Small business relief	Lgoti dlya predpriyatiy	Kichik biznes korxonolari
	malogo biznesa	uchun imtiyozlar
142. Social security taxes	Nalogi po sotsialnomu	Ijtimoiy sug'urtaga soliqlar
	straxovaniyu	
143. Sources of income	Istochniki doxoda	Daromad manbalari
144. Speculative gains	Doxodi ot birjevix	Birja operatsiya-lardan
	operatsiy	olingan daromadlar
145. Stamp duties	Gerboviy nalog	Gerb solig'i
146. Standard rate	Standartnaya nalogovaya	Standart soliq stavkasi
	stavka	
147. Stockholders	Aktsioneri	Aktsionerlar
148. Subsidiary company	Dochernyaya kompaniya	Sho''ba korxonolari
149. Succession duties	Nalogi na nasledstva	Merosga soliqlar
150. Supplementary tax	Dopolnitelny nalog	Qo'shimcha soliq
T		
151. Tax amnesty	Nalogovaya amnistiya	Soliq amnistiyasi
152. Tax burden	Nalogovoe bremya	Soliq yuki
153. Tax declaration	Nalogovaya deklaratsiya	Soliq deklaratsiyasi
154. Tax equality	Nalogovaya spravedlivost	Soliq adolatligi
155. Tax-free shops	Magazini besposhlinnoy	Boj olinmaydigan savdo
	torgovli	do'konlari
156. Tax holiday	Nalogovie kanikuli	Soliq ta'tillari
157. Tax liability	Nalogovie obyazatelstva	Soliq majburiyatlari
158. Tax planning	Nalogovoe planirovanie	Soliqli rejalashtirish
159. Tax rates	Nalogovie stavki	Soliq stavkalari
160. Tax secrecy	Nalogovaya tayna	Soliq siri
161. Tax treaty	Nalogovoe soglashenie	Soliq kelishuvlari
162. Taxable base	Nalogooblagaemaya baza	Soliqqa tortiladigan baza
163. Taxable capacity	Nalogosposobnost	Soliqni to'lash qobiliyati
164. Taxable income	Oblagaemiy doxod	Soliqqa tortiladigan
		daromad
165. Taxable period	Otchetniy period	Hisobot davri
166. Taxable transaction	Nalogooblagaemaya	Soliqqa tortiladigan
	operatsiya	operatsiya
167. Taxation at source	Nalogooblojenie	"Manbadan" olinadigan
	"u istochnika"	soliq
168. Trade mark	Torgovaya marka	Savdo markasi
169. Transaction taxes	Nalogi na operatsii	Operatsiyalarga soliqlar
170. Transfer taxes	Transfertnie nalogi	Transfert soliqlari
171. Transportation taxes	Nalogi na transportnie	Transportda tashishga
	perevozki	soliqlar
172. Travel tax	Nalogi na poezdki	Safar soliqlari
173. Turnover taxation	Nalogi na oborot	Oborotga soliqlar
U		
174. Undistributed profits tax	Nalog na	Taqsimlanmagan foydaga
	neraspredelennuyu pribil	soliq

175. Unitary tax system	Unitarnaya sistema nalogooblojeniya	Soliqqa tortishning unitar tizimi
176. Urban property tax	Nalog na nedvijimost v gorodskoy mestnosti	Shahar joylarida mulk solig'i
V		
177. Value-added taxation	Nalogooblojenie dobavlennoy stoimosti	Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish
W		
178. Wage tax	Nalog na zarabotnuyu platu	Ish haqidan olinadigan soliq
179. Withholding tax	Nalog, vzimaemiy "u istochnika" doxoda	«Manbadan» olinadigan daromad solig'i
180. Written down value	Ostatochnaya stoimost	Qoldiq qiymat

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari» Toshkent. «O'zbekiston», 1998 y.
2. Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» Toshkent. «O'zbekiston», 1998 y.
3. Karimov I.A. «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolini asosiy tamoyillari» Toshkent. «O'zbekiston», 1999 y.
4. Karimov I.A. «O'zbekiston XX asr bo'sag'asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». Toshkent. «O'zbekiston», 2000 y.
5. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. Toshkent, 2000 y.
6. Abdullaev Yo., Yaheyov Q. Soliq: 100 savol va javob. – 1995 y.
7. Alekrinskiy A.L. Audit straxovix kompaniy: Prakticheskoe posobie. - 1995 g.
8. Aleksandrov I.M. Nalogovie sistemi Rossii i zarubejnix stran. – 2002 g.
9. Barishnikov N.P. Buxgalterskiy uchets, otchetnost i nalogooblojenie. V 2-x tomax. – 1998 g.
10. Barishnikov N.P. Buxgalterskiy uchets, otchetnost i nalogooblojenie. Tom II. – 1998 g.
11. Borisov A.V. Vse chto vi xoteli znat o nalogovoy politsii po boyalis sprosit. – 1998 g.
12. Brizgalin A.V. Nalogi i nalogovoe pravo v sxemax. – 1997 g.
13. Brizgalin A.V. Nalogovaya optimizatsiya: printsipi metodi, rekomendatsii arbitrajnaya praktika. – 2002 g.
14. Vahobov A., Jamolov X. Soglasovanie mejbyudjetnix otnosheniy. Toshkent: «Moliya», 2002. – 239 s.
15. Veshchunova N.L. Buxgalterskiy uchyt i nalogooblojenie. – 1999 g.
16. Voprosi i otveti po nalogovomu kodeksu Respubliki Uzbekistan i instruktivnim materialam k nemu. T.: – 1998 g.
17. Gadoev E.F. Soliqqa oid xatolar. – 1996 y.
18. Govorin V.P. Ediniy sotsialniy nalog (vznos). – 2000 g.
19. Gusev V.V. Nalogooblojenie doxodov malix predpriyatiy. – 2000 g.
20. Dadalko V.A. Nalogooblojenie v sisteme mejdunarodnix ekonomicheskix otnosheniy: uchebnoe posobie. – 2000 g.
21. Dernberg R.L. Mejdunarodnoe nalogooblojenie: Per. s angl. -1997 g.
22. Dmitriev V.N. Nalog na doxodi inostrannix partnyorov. – 1999 g.
23. Dodoboev Yu.T. Nalogooblojenie i pravovoe regulirovanie predprinimatelskoy deyatelnosti. - 2002
24. Evstigneev A. Osnovi nalogooblajeniya i nalogovogo prava: Uchebnoe posobie. – 2000 g.
25. Ediniy nalog na vremenny doxod M.: – 2000 g.
26. Joromskaya N.N. Buxgalterskiy uchyt i nalogooblojenie byudjetnix organizatsiy. Normativnie dokumenti. Kommentarii. – 1999 g.
27. Jo'raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. T.: «Fan», 2004 y.
28. Zavalishina L.Sh. Praktika nalogooblajeniya v Uzbekistane. – 2002 g.
29. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliq tizimi va sug'urta faoliyatini takomillashtirish yo'llari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari 2004 yil 11-12 fevral. – 2004 y.
30. Ivanova N.V. Metodologicheskie aspekti institutsionnoy transformatsii nalogovoy sistemi. – 2000 g.
31. Yo'ldoshev M. Soliq huquqi. – 2000 y.
32. Karavaeva I.V. Nalogovoe regulirovanie rinochnoy ekonomiki: Ucheb. posobie. – 2000 g.

33. Koval L.S. Nalogi i nalogooblojenie: Ucheb. posobie. – 2001 g.
34. Kuzieva N. R. Rivojlangan mamlakatlar soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari. O'quv qo'llanma. T., 2003 y.
35. Kuzieva N. R. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining soliq tizimi. O'quv qo'llanma. T., 2002 y.
36. Kreditnoe straxovanie publikatsiy v Velikobritanii. M.: -1992 g.
37. Makareva V. Buxgalterskiy uchet v tselyax nalogooblojeniya. Chto neobxodimo umet pri sostavlenii buxgalterskoy otchetnosti: 250 voprosov i otvetov. – 2000 g.
38. Makareeva V.I. Prakticheskie soveti po buxgalterskomu uchetu dlya tseley nalogooblojeniya. – 1999 g.
39. Makareeva V.I. Formirovanie finansovix rezultatov dlya tseley nalogooblojeniya. – 1998 g.
40. Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliyaviy menejment. – Toshkent, 1999 y.
41. Malikov T.S., Haydarov N.H. «Soliqlar turi qo'pmi?» //Jamiyat va boshqaruv. 2001. 2-son.
42. Malikov T.S. i drugie. «Platejnaya sistema». Toshkent. Ma'naviyat, 2001 g.
43. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – 2002 y.
44. Medvedeva A.N. Buxgalterskiy uchet i nalogooblajeniya: konflikti i protivorechiya. – 1996 g.
45. Medvedeva A.N. Kak planirovat nalogovie plateji. – 1999 g.
46. Medvedeva A.N. Nalog na pribil: arbitrajnaya praktika. – 1998 g.
47. Milyakov N. Nalogi i nalogooblojenie: Praktikum. 2-e izd. – 2001 g.
48. Milyakov N.V. Nalogi i nalogooblojenie: Kurs lektsiy. - 1999
49. Mitin B.M. Tsennie bumagi: nalogi, uchet, pravovoe regulirovanie. – 2000 g.
50. Morduxovich A.G. Optimizatsiya nalogooblojeniya. Ot voprosi k otvetu. – 1997 g.
51. Mosin E.F. Nalogooblojenie pribili i doxodov predpriyatij i organizatsiy. – 1997 g.
52. Nalog na dobavlenuyu stoimost: Sbornik normativnix dokumentov /sost. J.X.Abdullaev, M.M.Komilov – 2000 g.
53. Nalog na pribil i doxodi inostrannix yuridicheskix lits. – 1996 g.
54. Nalogi i nalogooblojenie: Ucheb. posobie dlya vuzov /Pod. red. I.G.Rusakovoy, V.A.Mashina – 1999 g.
55. Nalogi i nalogooblojenie. 4-e izd. (Seriya "Uchebniki dlya vuzov") M.: – 2003 g.
56. Nalogi na vashe imushchestva. M., - 1997 g.
57. Nalogi: Ucheb. posobie /Red. kol. M.X.Rixsieva, M.Muxtarov. Z.Shmol i dr. – 2000 g.
58. Nalogi: Ucheb. posobie /Pod. red. D.G.Chernika 3-e izd. – 1998 g.
59. Nalogi: Ucheb. posobie /Pod. red. D.G.Chernika 4-e izd. pererab i dop. – 1998 g.
60. Nalogovaya sistema Rossii: Uchebnoe posobie /FSh.Shamsutdinov, Sh.F.Shamsutdinova – 2002 g.
61. Nalogovie sistemi zarubejnih stran: Uchebnik dlya vuzov /2-izd. pererab i dop. – 1997 g.
62. Nikonov A.A. Kak zapolnit spravku k raschetu naloga na pribil: Prakticheskoe rukovodstvo. – 1999 g.
63. O straxovix vzosax v Pensionniy fond Rossiyskoy Federatsii, Fond sotsialnogo straxovaniya Rossiyskoy Federatsii, Gosudarstvenniy fond zanyatosti naseleniya Rossiyskoy Federatsii i v fondi obyazatel'nogo meditsinskogo straxovaniya //Sobranie zakonodatelstva RF. - 1995 g.
64. Osnovi nalogovogo zakonodatelstva: Uchebnoe posobie. Chast 2 /D.I.Shaulov, U.T.Kan. – 2000 g.
65. Pepper Dj. Prakticheskaya entsiklopediya mejdunarodnogo nalogovogo i finansovogo planirovaniya. – 1999 g.
66. Perov A.V., Tolkushkin A.V. Nalogi i nalogooblojenie Uchebnoe posobie. 2-e izd. pererab. – 2003 g.

67. Petrova G.V. Nalogovoe pravo. Uchebnik dlya vuzov. – 1998 g.
68. Petrova G.V. Nalogovoe pravo. Uchebnik dlya vuzov. – 1998 g.
69. Popelyaeva M. Vash nalogoviy advokat: konsultatsiya i rekomendatsii. Nalogooblojeniya doxodov grajdan. - 1998 g.
70. Praktika nalogooblojeniya: voprosi i otveti. - 2001g.
71. Pronin S.P. Vziskanie zadoljnostey po nalogam. – 1998 g.
72. Sabirov X.R. Nalogooblojenie predpriyatiy malogo i srednego biznesa Respubliki Uzbekistan. – 2000 g.
73. Sattarov Sh. Nalogoviy kodeks Respubliki Uzbekistan v sxemax /Pod. red. X.Teshaboeva. – 2000 g.
74. Sokol M.P. Kak zapolnit nalogovuyu deklaratsiyu: metod. posobie. – 1997 g.
75. Solovov I.N. Nalogovie prestupleniya: praktika raboti organov nalogovoy politsii i sudov. – 2002 g.
76. Spravochnik nalogovogo inspektora: Sbornik dokumentov – 2000 g.
77. Spravochnik nalogovogo inspektora: Sbornik normativnix dokumentov po kontrolyu za valyutnimi i eksporno-importnimi operatsiyami. Vipusk 4 – 2000 g.
78. Spravochnik po nalogam, schetam i obyazatelnim platejam na 1995-1996-1999-2000-2001-2002 gg.
79. Tolkushin A.V. Nalogi i nalogooblojenie: Entsiklopedicheskiy slovar. – 2000 g.
80. Xabarova L.P. Uchet i nalogooblojenie malix predpriyatiy (Uproshchennye sxemi). – 1996 g.
81. Xvan L.B. Nalogovoe pravo. Uchebnik. – 2001 g.
82. Chernik D.G. Vvedenie v ekonomiko-matematicheskii modeli nalogooblojeniya Uchebnoe posobie. – 2000 g.
83. Chernik D.G. Grajdanin i nalogi. – 1998 g.
84. Chernik D.G. Nalogi. – 1998 g.
85. Chjen V.A. Razvitie chastnogo biznesa Uzbekistane. – 1995 g.
86. Chto i kak proveryat nalogovaya inspektsiya. M.:. – 1998 g.
87. Ekonomika nalogovoy politiki. /Red. Maykla P.Devere – 2001 g.
88. Yutkina T.F. Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnik. – 1999 g.
89. <http://www.finstat.ru> sayti.
90. <http://www.alpbook.ru> sayti.
91. <http://www.taxsites.com/international.htm> sayti.
92. <http://www.termika.ru> sayti.